



IJTIMOIY TARMOQLAR TA'SIRI

OTA-ONALAR VA O'QUVCHILAR UCHUN
TAVSIYAVIY METODIK QO'LLANMA



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

IJTIMOIIY TARMOQLAR TA'SIRI

OTA-ONALAR VA O'QUVCHILAR
UCHUN TAVSIYAVIY
METODIK QO'LLANMA

«MA'NAVIYAT»
TOSHKENT – 2024

UO‘K 316.77:004.738.5:303.4(075.8)

KBK 88.53+76.0ya73

M 14

Madrahimov A., Nurullayev H., Husanova N.,
Meliyeva M. Ijtimoiy tarmoqlar ta’siri [Matn]:
o‘quv qo‘llanma / A.Madrahimov, H.Nurullayev,
N.Husanova, M.Meliyeva. – T.: «Ma’naviyat»,
2024. – 88 b.

ISBN 978-9943-04-517-0

Taqrizchilar:

Quronov M., To‘rayev Sh., To‘rayev K.

Ushbu qo‘llanmada bugun dunyoni egallab borayotgan ijtimoiy tarmoqlarning kelib chiqish tarixi va uning ta’sirida vujudga kelayotgan muammolar, ijtimoiy tarmoqlarni yanada tushunishga qaratilgan masalalar tadqiq etiladi.

Mazkur qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligidagi 2024-yil 5-fevral kuni «Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport yo‘nalishlari bo‘yicha 2024-yilgi ustuvor vazifalar to‘g‘risida»gi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilishning 9-sonli bayoni 28-bandi «Yoshlar o‘rtasida ommalashgan 10 ta ijtimoiy tarmoqni tahlil qilib, ularni zararli ta’sirlardan himoyalash va ijobiy tomonidan foydalanish bo‘yicha o‘talonalar va o‘quvchilarga sodda tilda qo‘llanmalar yaratish»ga oid berilgan topshiriqlarning ijrosini ta’minlash asosida yaratildi.

Ushbu Qo‘llanma uch asosiy qismdan iborat bo‘lib, 1-qism 1–4-sinf o‘quvchilariga maktabga moslashish va kitobni sevishta o‘rgatishga oid tavsiyalar, 2-qism 5–8-sinf o‘quvchilariga yaxshi xulqli bo‘lish, atrofida gilar bilan muloqot qilishni o‘rganish va bilim olishga kuchli ishtiyoqni shakllantirishga oid tavsiyalar, 3-qism 9–11-sinf o‘quvchilariga kasb tanlash, jamiyatga moslashish, katta hayot maktabiga qadam qo‘yishda farzandlarga qanday yo‘l-yo‘riq berish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

ISBN 978-9943-04-517-0

© «Ma’naviyat», 2024

MUNDARIJA

Muqaddima	4
I. Tarbiya xususida	7
1.1. Tarbiya nima?	7
1.2. Tarbiya turlari	9
1.3. Tarbiyaga ta'sir etuvchi omillar	16
II. Ijtimoiy tarmoq	19
2.1. Ijtimoiy tarmoqlar nima?	19
2.2. Ijtimoiy tarmoqlar turlari	21
2.3. Jamiyatda asosiy foydalanib kelinayotgan ijtimoiy tarmoqlar ...	27
2.4. Ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta'siri	33
III. Tarmoqlarda bola xavfsizligi	39
3.1. Avlod kim?	39
3.2. Farzand tarbiyasida ota-onaning burch va mas'uliyati	42
3.3. Ijtimoiy tarmoqlarda bola xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar	48
IV. Maktab o'quvchilarini ma'nan yuksaltirish bo'yicha tavsiyalar	56
4.1. 1–4-sinf o'quvchilariga maktabga moslashish va kitobni sevishga o'rgatishga oid tavsiyalar	56
4.2. 5–8-sinf o'quvchilariga yaxshi xulqli bo'lish, atrofida-gilar bilan muloqot qilishni o'rganish va bilim olishga kuchli ishtiyoqni shakllantirishga oid tavsiyalar	69
4.3. 9–11-sinf o'quvchilariga kasb tanlash, jamiyatga moslashish, katta hayot maktabiga qadam qo'yishda farzandlarga qanday yo'l-yo'riq berish bo'yicha tavsiyalar	74
<i>Bolalarni internetga qaramligini aniqlash bo'yicha quyidagi testni taklif etamiz</i>	77
Xulosa	80
Foydalanilgan adabiyotlar	86

MUQADDIMA

Farzandlarimizning qalbi va ongini yovuz xavf-xatarlardan himoya qilish eng dolzarb vazifamizdir... Agar biz ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o'z maqsadlarga yetolmaymiz... Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etishimiz zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV

Hozirgi paytda nanotexnologiyalar keng ko'lamda, shiddat bilan rivojlanib, istalgan axborotni dunyoning bir nuqtasidan – ikkinchi nuqtasiga judayam qisqa vaqt oralig'ida yetkazilmoqda. Eng asosiysi, har bir insonda o'zi xohlagan axborotni tarqatish imkoniyati bor.

Shuningdek, smartfon, kompyuter, notebook kabi vositalar yordamida ma'lumotlarni, adabiyotlarni, kino-videofilmlarni, san'at asarlarining elektron namunasini saqlash, nusxa ko'chirish, ko'paytirish hamda tarqatish imkoniyatlari vujudga keldi.

Xalqaro internet tarmog'ida trillionlab gigabayt hajmdagi axborotlar turli tillarda mavjud bo'lib, ulardan dunyoning istalgan nuqtasidan turib foydalanish mumkin. Internet yordamida istalgan axborotni joylashtirish ilm-fan bilan shug'ullanuvchilarga qulayliklar yaratmoqda. Ilmiy izlanishlarni va tadqiqotlarni olib borishda, murakkab texnik qurilmalardan foydalanishda internet tarmog'ining yordami katta bo'lmoqda.

Shuningdek, murakkab tibbiy jarrohlik amaliyotini o'tkazishda – raqamli axborot texnologiyalarining tengi yo'q.

Bundan tashqari, internetdan foydalanuvchilar uchun ijtimoiy tarmoqlardagi «vizual chat» texnologiyasining joriy etilishi nati-

jasida, bir vaqtning o'zida, minglab kilometr masofadagi shaxsni bevosita ko'rib, gaplashish mumkin. Yoki bo'lmasa, ilmiy anjumanlarda, oilaviy tadbirlarda onlayn (masofadan turib) ishtirok etish va fikr bildirish mumkin.

Davr shiddati ila internetdagi axborotlar va ma'lumotlar inson faoliyatining barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Dunyoda bo'lib o'tayotgan har bir voqea-hodisa, jarayonlar haqidagi so'nggi axborotlar ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallarida muntazam tarqatilmoqda.

Ommaviy-axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Facebook ijtimoiy tarmog'i, jahonda eng ko'p abonentlar va foydalanuvchilarga ega bo'lib, axborot tarqatuvchilar orasida yetakchi o'rinni egalladi. Axborot tarqatish va undan foydalalanish imkoniyatlarining kun sayin taraqqiy etib borishi natijasida, X, Instagram, YouTube, Telegram dasturlari orqali ham aholi orasida ommalashdi.

Axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanib, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimiz qo'lga kiritayotgan olamshumul yutuqlar keng targ'ib qilinmoqda. Xalqimizning betakror qadriyatlarini, san'atini, arxeologik va tarixiy yodgorliklarini, milliy badiiy va ilmiy asarlarni, milliy qo'shiqchilikni, jozibali folklorni, naqqoshlik va xattotlik namunalarini keng targ'ib qilishda ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

Bularning barchasi inson qaysi millatga mansubligidan, qaysi tilda gapirishidan qat'iy nazar, ma'naviy dunyosini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Aynan, ushbu maqsad yo'lida xizmat qiladigan juda ko'plab ilmiy, tarixiy, badiiy, dunyoviy axborot va ma'lumotlar internet tarmog'i orqali tarqatilmoqda.

Xo'sh, bu internet tarmog'i orqali foydalanish qanday amalga oshmoqda? – degan savol yuzaga kelishi tabiiydir. Hozirgi paytda internet foydalanuvchilari o'z maqsadlari va qiziqishlaridan kelib chiqib, bir necha guruhga bo'linmoqda. Bular qatoriga:

1. Ilm o'rganish, yangi ilmiy manbalarni almashish orqali o'z bilimini va ilmiy dunyoqarashini boyitayotganlar;

2. Shaxsiy profillarida «post»lar qo'yib, u yoki bu ijtimoiy holatlarga nisbatan o'z shaxsiy fikrini bildirayotganlar;

3. Qaysidir ijtimoiy jarayonni faol yoritishga qaratilgan «Facebook» sahifalarda faol qatnashuvchilar;

4. Biror yangilikni, shaxsiy hayoti yoki biror oilaviy jarayon (to'y, tug'ilgan kun)lar bilan bog'liq bo'lgan taassurotlarni ulashmoqchi bo'lganlar kiradi.

Bu foydalanuvchilar internet tarmoqlarini turli-tuman, rang-barang ma'lumotlar, fikrlar, suratlar, musiqalar, turli xil media materiallari, ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar, hayotiy hikoyalar, she'rlar, inson uchun zaruriy bilimlar qatoriga kiruvchi ma'lumotlar bilan boyitishmoqda. Natija esa, muammolarning kamayishiga emas, ko'payishiga xizmat qilishi jamiyatni xavotirga solmoqda.

I. TARBIYA XUSUSIDA

1.1. Tarbiya nima?

Bugun ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama sog'lom shaxsni shakllantirish, jahon standartlariga javob bera oladigan raqobatdosh milliy kadrlar korpusini yetishtirib berish o'ta-onalar hamda ustoz murabbiylar oldida turgan eng muhim vazifa hisoblanadi. Albatta, bu ta'lim va tarbiyasiz amalga oshmaydi. Qadimdan o'zbek xalqi bolani tarbiyalashda uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida yondashgani qaysiki adabiyot yoki asarni qo'lga olishimizdan qat'iy nazar insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga doir fikr-mulohazalarga alohida to'xtalib o'tgani dalildir.

Tarixiy boy ma'naviy meros negizidagi mohiyat esa ta'lim, ya'ni ilm olmagan inson ruhsiz tana ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Aynan inson kamolotida ta'lim va tarbiya insonni ulug'likka yetaklovchi omil ekanligi va u orqali inson o'z ilmini kelajak avlodga yetkazib berish, uni abadiylikka muhrlashi mumkinligiga guvoh bo'lamiz. Tarbiya xususida so'z yuritganimizda pedagogik adabiyotlarda «Tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llanilgan.

Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisi sifatida keltirilgan. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Ammo, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Boisi, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat yoki mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga yuz tutadi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, tarbiya deganda biz aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayonga aytiladi.

Ta'lim esa – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon hisoblanadi. Ularni samadorligini oshirishda yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni,

axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuyidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti ya'ni ta'lim kompusi alohida ahamiyat kasb etadi.

1.2. Tarbiya turlari.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki, odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Shu bois, bolaga yoshligidan tarbiya berish uchun tarbiyaning turlarini bilib olish lozim.

Tarbiya turlariga quyidagilar kiradi:

- *Jismoniy tarbiya,*
- *Axloqiy tarbiya,*
- *Aqliy tarbiya,*
- *Mehnat tarbiyasi,*
- *Huquqiy tarbiya,*
- *Estetik tarbiya,*
- *Ekologik tarbiya,*
- *Diniy tarbiya*
- *Media tarbiya kabi turlarga bo'lib o'rganamiz.*

Jismoniy tarbiya – bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanib, ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Bu tarbiya turi xususida yoshlarni sog'lom bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash masalasi o'zbek xalq ma'naviy merosi,

ogʻzaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh gʻoyalari-
dan biri boʻlib kelgan.

Jismoniy tarbiya oʻquvchilarda quyidagilarni shakllantirishga yordam beradi:

- ✓ inson aʼzolarining funksional kamoloti yaʼni ichki aʼzolar, asab va harakat, suyak-muskul tizimi, tana uygʻunligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish layoqatiga egaligini taʼminlash;
- ✓ bolaning sogʻligʻini mustahkamlash;
- ✓ ularni gigiyena qoidalariga amal qilishga koʻniktirish;
- ✓ bolani epchil va mohirligini har tomonlama oʻstirish;
- ✓ oʻquvchilarning jinsiy jihatdan toʻgʻri kamolga yetishlari uchun sharoit yaratish;
- ✓ oʻquvchilarda mustahkam iroda, qatʼiy xarakter, intizomga soʻzsiz amal qilish koʻnikmalarini shakllantirish kabi masalalarni hal etadi.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur boʻlgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini bolalar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat koʻnikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yoʻnaltirilgan tarbiyaviy jarayon boʻlib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Bolada axloqiy tarbiyani shakllantirib borish quyidagi vazifalardan iborat:

1. Bolani odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq meʼyorlari bilan tanishtirish;
2. Bolada maʼnaviy-axloqiy ongni shakllantirish;
3. Oʻquvchilarning maʼnaviy-axloqiy his-tuygʻularini tarbiyalash va rivojlantirish;
4. Bolalarda maʼnaviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat koʻrsatish, mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgoʻylik, oliyjanoblik, muruvvatlilik, rahmdillik, moddiy va maʼnaviy neʼmatlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h.k.)larni tarbiyalash;

5. Bolada ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish kabi qator vazifalarni amalga oshirishda yordam beradi.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy bilish qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi **vazifalar** hal etiladi:

- ✓ tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish;
- ✓ ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;
- ✓ mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- ✓ bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish;
- ✓ atrofdagi voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini shakllantirish;
- ✓ tanqidiy mushohada yuritishni o'rgatish;
- ✓ bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuza-tuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish kabi vazifalarni hal etishga yordam beradi.

Huquqiy tarbiya – shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasida-gi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllan-tirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida bolalar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qa-ror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rga-tib borish talab etiladi.

Bu tarbiya jarayoni quyidagi vazifalarni amalga oshirishda ko‘mak beradi:

- bolaga huquqiy me‘yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar berish;

- bolada huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyoj va huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

- bolalarda huquqiy faoliyat ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

- huquqiy madaniyat ko‘rinishlari (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas‘ullik, huquqiy faollik, huquqiy e‘tiqod va huquqiy salohiyat) va huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy me‘yor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to‘g‘ri baholash ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo‘lishiga erishish;

- davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlardan foydalanish kabi ishlarni qanday amalga oshirish to‘g‘risida bilim beradi.

Ekologik tarbiya – (grekcha «oikos» – turarjoy, makon, «logos» – fan) o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon. **Ekologik tarbiya bolalar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi bo‘lib**, «Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis olimi E.Gekkel tomonidan qo‘llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologik ta‘lim esa bolaga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan. Bunda bolalar:

Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo‘lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘lishini;

Ekologik madaniyat bolani ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilishga o‘rgatish;

Ekologik faoliyat ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar davrida faolligini oshirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Ekologik tarbiya quyidagi vazifalardan iborat:

- ✓ ona tabiatga bo'lgan muhabbatni uyg'otish;
- ✓ bolalarni tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish;
- ✓ ekologiya borasida bilimlar qamrovini oshirish;
- ✓ bolalarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish;
- ✓ insoniyat oldida turgan ekologik muammolar kelib chiqishi va bartaraf etish choralarini izlab topish;
- ✓ yurtimizda suv bilan bog'liq muammolar xususida yetarlicha bilimlar berib borish;
- ✓ bolalarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish kabi ustuvor vazifalarni belgilab oladi.

Mehnat tarbiyasi – bolalarda mehnat qilishga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

– yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

– bolalarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

– bolada mehnat qilish orqali aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

– mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

– bolada mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

– bolalar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli

bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

– kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va yo'naltirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Estetik tarbiya (lotincha «estezio» «go'zallikni his qilaman») o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, go'zallikka muhabbat uyg'otish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayon hisoblanadi. Estetik tarbiyaviy bilimlarni shakllantirish quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi.

- ✓ bolaga estetik bilimlarni berish;
- ✓ bolada estetik tushunchalar to'g'risida tasavvurlarni hosil qilish;
- ✓ bolalarda estetik his-tuyg'u, estetik ong, estetik did va estetik madaniyatni shakllantirish kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Diniy tarbiya – bu ma'lum bir diniy an'anaga muvofiq bolalar va o'smirlarda diniy e'tiqodlar, qadriyatlar va xulq-atvor normalarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon. Diniy tarbiya jarayonida bolalarda diniy bag'rikenglik komponentlarini shakllantirish asosiy o'rinda turadi.

Diniy bilimlarning berib borilishining quyidagi jihatlari muhim hisoblanadi:

- bolalarga diniy tarbiya berish jarayonida diniy bag'rikenglik komponentini shakllantirish;
- bolalarga dunyoviy ilmlarning ahamiyati va zarurligini Qur'oni karim va hadislar yordamida ochib berish va targ'ib qilish;
- diniy tarbiya berish jarayonida islom dinini ilmiy nuqtayi nazardan o'rgatish.

Bolalikdan farzandga diniy ta'limotni singdirish og'irligini inobatga olib, hadislar yordamida odob va muomalaga oid qarashlarni shakllantirish maqsadga muvofiq:

- ✓ salomlashishni har xil jargonlardan xoli ravishda butun mamlakat bo'yicha bir xil «*Assalomu alaykum*» deyishga odatlantirish;
- ✓ tartib va intizomni shakllantirish;
- ✓ ismini to'liq aytishni odatlantirish;
- ✓ poklikka o'rgatish;
- ✓ o'zini va yaqinlarini himoya qilishni o'rgatish;
- ✓ birovning buyumlarini olish yoki ishlatish uchun ruxsat so'rashga o'rgatish;
- ✓ tengdoshlariga nisbatan insoniylik va hurmat hissini tarbiyalash;
- ✓ kattalarga (tavoze) hurmat bildirishni o'rgatish;
- ✓ ota-onani e'zolash;
- ✓ hadislarda onani e'zozlash borasidagi talqinlarni bolalarga xos tarzda singdirish kabi tarbiyaviy bilimlarni berib borish lozim.

Media tarbiya – Axborot oqimlari ko'payib borayotgan va texnologiya kundalik hayotda asosiy rol o'ynaydigan zamonaviy dunyoda media-tarbiya tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Media tarbiya – bu bolalar, o'smirlar va kattalarda ommaviy axborot vositalarini (masalan, televideniye, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) tanqidiy idrok etish, tahlil qilish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga oid jarayon hisoblanadi. Media tarbiya axborot makoni imkoniyatlari cheksizligi hamda undan to'g'ri foydalanishni bolaga yoshligidan o'rgatish ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda.

Media tarbiya maqsadi odamlarni axborot iste'moliga ongli yondashish, faktlarni fikrlardan farqlash, media xabarlarini tanqidiy baholash, raqamli texnologiyalardan xavfsiz va samarali foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Bugun media tarbiyani rivojlantirish bolada quyidagilarni shakllantirishda yordam beradi:

– OAV xabarlarini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu bolaga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan

manipulyatsiya va noto‘g‘ri ma’lumotlardan qochishga yordam beradi;

- ommaviy axborot vositalaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish;

- bolalar tomonidan yosh toifasidan kelib chiqqan holda kontent yaratish borasidagi bilimlar;

- ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan xabar yoki axborotdan foydalanish, tarqatish, saqlash kabi jarayonlar bilan bog‘liq axloqiy-huquqiy jihatlar to‘g‘risida me’yorlar va qoidalarni tushunish;

- axborotni topish, qayta ishlash va yaratish uchun turli raqamli vositalar va resurslardan foydalanishni o‘rganish bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish;

- internet va ijtimoiy tarmoqdagi xatti-harakatlarining oqibat-lari, shu jumladan, maxfiylik va ma’lumotlar xavfsizligi masalalari haqida tushunchani rivojlantirish.

Media kontentini yaratish va undan foydalanishda ijodkorlikni rag‘batlantirish kabi vazifalarni hal etishga qaratilgan.

1.3. Tarbiyaga ta’sir etuvchi omillar.

Bugungi kunda hayotimizni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, har bir kunimiz axborot texnologiyalari bilan uzviy holda kechadi. Dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, yangiliklarni biz internet tarmog‘i yoki OAV orqali olamiz. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, internet va axborot texnologiyalari bugungi kunning muhim omillaridan biriga aylandi.

Aytish mumkinki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda ezigulik va yovuzlik yo‘lida foydalaniladigan shaxslar bo‘ladi. Bugun dunyoning eng chekkasida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar bir lahzadayoq bu chekkasida turgan odam osongina xabardor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ana shunday imkoniyatlar ortidan yuzaga keladigan tahdidlardan bizning yoshlarimiz ham chetda qolgani yo‘q. Ayniqsa, bugungi yoshlarning internet tarmog‘ida ko‘r-ko‘rona ergashib kiradigan sayt va portallar mavjud. Ular tarqatayotgan millionlab xabarlar ortidan yoshlar ongini zaharlay-

digan, kishini sehrlab, o'z domiga tortadigan xabarlar kun sayin ortib borishi ortidan bolalar tarbiyasiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazib qolmoqda.

Avvalgi bolalar ko'chaga chiqib o'ynab yomon kishilar ta'siriga duchor bo'lgan bo'lsa, hozirgi bolalarning salbiy ta'sirga tushishi uchun ko'chaga chiqishi shart emas. Unga qo'lidagi gadjat va smartfonlarning o'zi yetarli. Endi bolalar tarbiyasi qo'lidagi kichik buyum orqali o'zlashtirgan xabar yoki ma'lumotiga bog'liq bo'lib qoldi.

Bugun hayotning asl haqiqatlarini hali tushunib yetmagan yoshlar internetni yovuzlik quroli qilib olganlari uchun tayyor o'ljaga aylanib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan mushohada qiladigan bo'lsak, dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib borishda davom etmoqda. Unda kuchli ta'sirga ega bo'lishning eng maqbul yo'li, har qancha mablag' talab etilishdan qat'iy nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeyini egallash ekani ayon bo'lib qoladi.

Jahonda «axborot urushi» ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron-bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatilmoqda deylik. Tabiiyki, bunday axborotlar bolada ma'lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta'sir etmasdan qo'ymaydi. Balki, axborotlashuv va globallashuv jarayonlari orqali faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyb yo'qotgan, o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor «Manqurt» kishilarni ham vujudga keltiradi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarni ikki turga ajratishimiz mumkin. Bular tashqi va ichki omillarga bo'linadi.

Tashqi omil deb bola xavfsizligi uchun unga nisbatan tashqaridan vujudga keladigan xavfga aytiladi. Tashqi xavflar o'zini quyidagilarda namoyon qiladi:

- jismoniy holatiga ta'sir;
- ma'naviy dunyoqarashiga ta'sir;
- ruhiy-psixologik holatiga ta'sir;

- bola hayoti va sog‘lig‘iga ta’sir;
- axloqiy tarbiyasiga ta’siri kabilar.

Bola tarbiyasiga tashqi ta’sir etuvchi omil sifatida:

- OAV vositalari;
- ijtimoiy tarmoqlar;
- internet tarmoqlar;
- o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlar (*bolalarga turli g‘oya va mafkuralarni singdirish uchun ishlab chiqarilgan qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar*);
- gadjetlar va smartfonlar ortidan bola salomatligiga ta’sir etuvchi zararlar;
- notanish kishilar tomonidan bola sog‘ligi va hayotiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan xavflarga aytiladi.

Bola tarbiyasiga ta’sir etuvchi ichki omillarga farzand dunyoga kelgan va voyaga yetishida makon sifatida xizmat qiluvchi oiladagi muhitning nosog‘lom ta’sirlariga aytiladi.

Bola tarbiyasiga asosan quyidagi ichki omillar ta’sir etadi:

- oiladagi muhitning nosog‘lomligi;
- to‘liqsiz oila – bola tarbiyasida ota yoki onaning vazifasini bajaruvchi shaxsning yo‘qligi kabi omillar.

Borgan sari bolalarning raqamli texnologiyalarga ruju qo‘yib borishi ularning real hayotdan uzilishi odatiy bolalar kabi ko‘chada to‘p surib, quvlashmachoq o‘ynovchi bolalarning ham shovqin-suroni quloqqa kam chalinmoqda. Ularning asosiy vaqtini sarflovchi gadjetlar ular uchun oilada, jamiyat a‘zolari o‘rtasida o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishini ko‘rsatuvchi o‘rnak makoniga aylanib bormoqda. Bola o‘zini kundalik hayotda, tengdoshlari davrasida, oilaviy munosabatlarda, ota-ona farzand munosabatlarini qanday tashkil etishdagi ma’lumot va axborotlarni o‘zida o‘rnak sifatida o‘zlashtirib oluvchi makon hisoblanadi.

Shunday ekan bolani tarbiyasida muhim ro‘l o‘ynovchi har qanday salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etishda uni paydo qiluvchi ildizlarini aniqlash va oldini olish choralari ko‘rish jamiyatning ertangi egalari bo‘lmish avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

II. IJTIMOY TARMOQ

2.1. Ijtimoiy tarmoqlar nima?

Axborot asrida zamonaviy texnologiyalar hayotimizga tobora ko‘proq kirib bormoqda. Bugun hatto bog‘cha tarbiyalanuvchisi ham mobil telefondan, undagi ilovalar va internetdan foydalanishni o‘rganib olmoqda. Katta-yu kichik orasida internetdan foydalanuvchilar, vaqtini ko‘proq u bilan o‘tkazuvchilar ortmoqda. Kelajak hayotni internet va hali kashf etilmagan yuqori texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, ular ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Mazkur fikrlar ijtimoiy tarmoqlarga ham tegishlidir. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham oltin qoidaga ya‘ni me‘yorni unutmaslik shartiga amal qilish zarur.

«Ijtimoiy tarmoq» atamasini 1954-yilda sotsiolog Jeyms Barns ilk bor muomalaga kiritgan bo‘lib, o‘sha paytlarda uning internetga aloqasi bo‘lmagan va unga shunday ta‘rif berilgan: «Ijtimoiy tarmoq – ijtimoiy obyektlar hisoblanadigan (odamlar va tashkilotlar) tugunlar guruhi va ular orasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar)dan tarkib topgan ijtimoiy tuzilmadir». Oddiyroq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq – ma‘lumotlar, bir taraflama yoki ikki taraflama aloqalarga ega bo‘lgan odamlar guruhidir. Ma‘lum maqsad va faoliyatga qaratilgan bu ijtimoiy tarmoqlar o‘z davrida ziyonidan ko‘ra foydasi ko‘p edi.

Kompyuter va internetning yaratilishi hamda unda turli dasturlarni ishga tushurilishi ijtimoiy tarmoqlarning yangi davrini boshlab berdi. Umumiy Web 2.0 g‘oyasidan iborat internet va ijtimoiy xizmatlarning jadal rivojlanishi va kengayishi tadqiqot qiziqishlarining yangi sohasini, ya‘ni virtual yoki onlayn jamoalar deb ataladigan internetdagi ijtimoiy tarmoqlarni yaratishga sabab bo‘ladi. Bu virtual ijtimoiy tarmoqlar davridir. Uning natijasida

bugun dunyo bo‘ylab 5 milliarddan ortiq odam ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib kelmoqda va uning ta’sirida globallashuv jarayoni yanada jadallashmoqda. Globallashuv (lot. globus – shar, Yer sayyorasi) – XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfning ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha.

Ijtimoiy tarmoq nima ekanligini anglash uchun u haqida berilgan ta’riflarga nazar solish lozimdir. Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari o‘xshash yoki oflayn aloqaga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko‘ngilochar (musiqi va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.

Ijtimoiy tarmoq – bu virtual tarmoqlar va jamiyatlar orqali g‘oyalalar va ma’lumotlar, jumladan, matn va vizual tasvirlarni almashtirish imkonini beruvchi raqamli texnologiya.

Ijtimoiy tarmoq odatda foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent (audio, video, ovozli xabar, rasm, infografika va boshqalar)ga ega bo‘lgan, keng auditoriyani yoqtirishlar, ulashishlar, sharhlar va muhokamalar orqali jalb qilish imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, dunyo bo‘ylab eng yirik va ko‘pchilik foydalanadigan ijtimoiy tarmoq platformalari – Facebook, YouTube, WhatsApp, Instagram va WeChat hisoblanadi. Olib borilgan axborot-tahliliy natijalar va statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Facebook hozirgi vaqtda dunyoda eng mashhur ijtimoiy tarmoq sifatida yetakchi o‘rinda bormoqda. Bugungi kunga kelib, Facebook tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tganlar soni bir necha milliard kishidan ortganligi ma’lum qilingan. Undan keyingi o‘rinlarni esa Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo egallab kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar jamiyatimizning bir-biri bilan bog‘lanish, biznes yuritish va ijtimoiylashuv usullarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Bugungi bolalar va yoshlar ijtimoiy tarmoqlarsiz dunyoni bu qadar anglamagan bo‘lar edi. Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Ijtimoiy ko‘nikmalar. Ijtimoiy tarmoq hozirgi odamlarga yangi do‘stlar orttirish va tanishish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar to‘g‘ri qo‘llanilganda, o‘z-o‘zini hurmat qilishni oshiradi va kimgadir o‘zini kamroq izolyatsiya qilishiga yordam beradi.

Mustaqillik va o‘zini namoyon qilish. O‘zingizning «shaxsiy sahifangizni» yaratish orqali odamlarga o‘z fikrlaringizni bildirish va qiziqishlaringizni muhokama qilish imkonini beradi. Eng muhimi hayotdagi o‘z pozitsiyangizni namoyish qilish imkonini beradi.

Raqamli kompetentsiya. Texnologiya har qachongidan ham tezroq rivojlanmoqda. O‘smirlar va yoshlar yangi texnologiyalarga (yoki mavjud texnologiyalarning yangi ilovalariga) moslashishni o‘rganganlarida, ular kelajakdagi texnologiyaga moslashish uchun yaxshi tajribaga ega bo‘ladilar ya’ni bunda raqamli kompetentlik ortadi.

Ta’limni rivojlantirish. Maktab, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keying bosqichdagi o‘quvchilar ta’lim bilan bog‘liq bilimlarni mukammal egallash, topshiriqlarni bajarish va bu bo‘yicha mu-nozaralarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi va boshqa imkoniyatlarga taqdim etadi.

2.2. Ijtimoiy tarmoqlar turlari.

Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalari jadal ommalashuvi natijasida ular jahon media maydoni sahnasida katta mavqega ega bo‘lib bormoqda. Shunday ommaviy muloqot vositalaridan biri – ijtimoiy tarmoqlardir.

Umuman Internetning paydo bo‘lishi bilan hayotning juda ko‘p aspektlari birin-ketin virtual dunyoga ko‘cha boshladi. Eng muhimi,

u yoshlarning an'anaviy muloqot shaklini tubdan o'zgartirib yubordi. O'lis masofadan turib nafaqat eshitish, balki ko'rish imkoniyatining yuzaga kelishi virtual suhbatlarni keskin ommalashtirdi. Keyingi 15–20 yil davomida dunyo mamlakatlari aholisi, shu jumladan, o'zbekistonlik yoshlar hayotida mobil aloqa urf tusini olgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib mobil uskunalaridagi WhatsApp, ICQ, MSN Messenger va Telegram orqali matnli muloqot (ing. text messaging) ommaviylik kasb etmoqda.

Qayd etish kerak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb yarmi – ya'ni 3 mlrdga yaqin kishi turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Shulardan eng katta qismi – 2 mlrd odam «Facebook»da. <https://napoleoncat.com> sayti bergan ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda «Facebook» tarmog'idan foydalanuvchilar 1 millionga yaqinlashib qolgan. Ular o'rtacha 25–34 yoshda bo'lib, 65,5 foizini erkaklar, 34,5 foizini xotin-qizlarimiz tashkil etar ekan.

Ayni paytda dunyoda 1 mlrdlik auditoriyaga ega Instagram O'zbekistonda 2 mlnga yaqin foydalanuvchiga ega. Ikki yarim mlrdlik Facebook esa mamlakatimizda 686 400 kishini birlashtirgan. 200 mlnlik Telegram messenjeri O'zbekistonda 18 mln kishiga xizmat ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo yoshlarining 96 foizi ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'zaro muloqotga kirishmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda hamma YouTube, Facebook, Instagram, Twitter kabi ijtimoiy tarmoq va Telegram messenjerlarni biladi, hech bo'lmaganda bittasidan foydalanadi. Ayniqsa, yoshlar bu masalada faoldir va aynan shuning o'zi muammodir. Nima uchun? Sababi bitta: ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar har doim ham to'g'ri va obyektiv emas. Tabiiyki, uning ma'naviyatiga, ruhiyatiga, axloqiga tahdid solmaydi degan kafolat yo'q. Shuni tan olish kerak, ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning salbiy tomonlari ham mavjud. Chunki ommaviy aloqa vositalari orqali ongini va aqlni egallash tahdidi mavjuddir va jiddiy qo'rquv uchun asoslar mavjud. Muammoni, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy ma'lumotlar oqimining ko'payishi kuchaytirmoqda. Sababi, yoshlar o'zlarining

tajribasizliklari, psixologik va fiziologik yetilmaganliklari sababli tarmoqlardan kelgan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilishga qodir emaslar. Ehtimol, yolg'on va xolis ma'lumotlar uni osonlikcha yo'ldan ozdirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar turlari o'rtasidagi farqlarni va foydalanuvchilarning ular bilan qanday munosabatda bo'lishini bilish samaraliroq muloqot qilishda yordam beradi. Odatda ijtimoiy tarmoqlarni bir necha turlarga bo'lish mumkin.



1. Umumiy turdagi ijtimoiy tarmoqlar.

Ijtimoiy tarmoq saytlari shaxslarga bir-biri bilan bog'lanishga yordam beradi va turli masalalar uchun ularga murojaat qilishning ko'plab usullarini taklif qiladi. Foydalanuvchilar o'z fikrlarini baham ko'rishlari, qiziqish guruhlarini tuzishlari, kontentni tanlashlari, fotosuratlar va videolarni yuklashlari va guruh muhokamalarida qatnashishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoq platformalariga misollar: **Facebook, X, Instagram, LinkedIn, TikTok.**

2. Munozara va muhokama qilish tarmoqlari.



Clubhouse

Muhokamalar shaxslarni bir-birlarining savollariga javob berishga, fikr va yangiliklarni almashishga undaydi. Ushbu ijtimoiy tarmoqlarning aksariyati eng yaxshi javob olish uchun savollar berishga qaratilgan.

Munozara va muhokama qilish tarmoqlariga misollar: **Reddit, Digg, Quora, Clubhouse.**



3. Tasvir almashish tarmoqlari.

Ushbu ijtimoiy tarmoq saytlari shaxslarga fotosuratlar va tegishli kontentni almashish imkonini beradi. Ular muloqotni boshlash va ijodkorlikni ilhomlantirish uchun platformani taklif qilishadi.

Tasvir almashish tarmoqlariga misollar: **Instagram, Flickr, Photobucket.**



4. Belgi qo'yish tarmoqlari.

Belgi qo'yish tarmoqlari – foydalanuvchilar turli g'oyalar, maqolalar, postlar va boshqa kontentni keyinchalik foydalanish uchun saqlaydigan platformalardir. Ko'plab shaxslar onlayn resurslar ro'yxatiga havolalarni ham baham ko'rishadi. Ushbu veb-saytlarning maqsadi umumiy manfaatlarga asoslangan yangi tarkibni topish va tendensiyalarni muhokama qilishdir. Ushbu tarmoqlardan shaxslarni veb-saytga yo'naltirish va o'z kontentini baham ko'rish va belgi qo'yish orqali ular bilan muloqot qilish va ularning fikrlariga ta'sir qilish uchun foydalanish mumkin.

Belgi qo'yish tarmoqlariga misollar: **Feedly, Flipboard, Pocket, StumbleUpon, Pinterest.**

5. Bloglar va nashriyot tarmoqlari.

Ushbu ijtimoiy tarmoqlar ish, dolzarb voqealar, sevimli mashg'ulotlar va boshqalar haqida fikrlarni joylashtirish imkoniyatini beradi. O'z blogiga ega bo'lishning ko'plab afzalliklarini veb-saytda joylashtirmasdan olish mumkin.

Bundan tashqari, qiziqarli kontentni qidirish uchun Internetga tashrif buyuradigan odamlardan yangi o'quvchilarni jalb qilish mumkin. Hisobiga ko'proq trafikni jalb qilish uchun mahsulotdan qanday qilib ijodiy foydalanish haqida blog postlarni yozishni yoki soha haqida yangiliklarni joylashtirish mumkin.

Bloglar va nashriyot tarmoqlariga misollar: **Medium, WordPress, Facebook, Tumblr.**

 **Medium**



WORDPRESS

6. Iste'molchilarning fikrlarini ko'rib chiqish tarmoqlari.

Ushbu saytlar mijozlarning kompaniyalar haqidagi sharhlarini e'lon qiladi. Bu esa foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan xizmatlar va mahsulotlar turlarini, shuningdek, ularning umumiy qoniqishini to'liq tushunish imkonini beradi. Mijozlarning fikr-mulohazalari ko'p odamlar duch keladigan umumiy muammolarni aniqlashga va vaqt o'tishi bilan tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

Iste'molchilarning fikrlarini ko'rib chiqish tarmoqlariga misollar: **TripAdvisor, Yelp, OpenTable, Google My Business.**

7. Qiziqishlarga asoslangan tarmoqlar.

Sevimli mashg'ulotlar va noyob qiziqishlarni boshqalar bilan baham ko'rish uchun ushbu maxsus tarmoqlardan foydalanish mumkin. Sohaga tegishli saytlar va ilovalar umumiy manfaatlar asosida ham tarmoqqa yordam berishi mumkin. Misol uchun, qiziqishga asoslangan sayt odamlarga sevimli kitoblarini muhokama qilish va keyingi o'qish haqida tavsiyalar olish imkonini beradi. Mualliflar o'z ishlarini targ'ib qilish va o'quvchilarning savollariga javob berish uchun profil sahifalarini yaratishi mumkin.

Qiziqishlarga asoslangan tarmoqlarga misollar: **Strava, Peanut, Goodreads.**

8. Iqtisodiyot tarmoqlarini almashish.

Ushbu saytlar shaxslarni tovarlar va xizmatlarni almashishga undash orqali resurslarga kirish imkonini beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini almashishga misollar: **Lending Club, Couchsurfing, Eatwith.**



9. Ijtimoiy xarid qilish tarmoqlari.

Ushbu tarmoqlar shaxslarga tendensiyalarni aniqlashga, ajoyib topilmalar bilan bo'lishishga, xaridlarni amalga oshirishga va sevimli brendlariga ergashishga yordam beradi. Ular elektron tijoratga e'tibor berishadi va ijtimoiy element uni qiziqarli qiladi.

Ijtimoiy xarid qilish tarmoqlariga misollar: **Instagram, Poshmark, Etsy, Facebook.**



10. Video xosting platformalari.

Video xosting platformalari mustaqil kino ijodkorlar, jurnalistlar va boshqa ijodkorlarga o'z tomoshabinlariga videolarni tez va oson oqimlash imkonini beradi.

Video xosting platformalariga misollar: **YouTUBE, TikTok, Snapchat, Vimeo, Instagram va boshqalar.**

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi paytda asosiy axborot manbalari televideniye va veb saytlardir. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston aholisining deyarli 60 %i televideniye va 40 % veb saytlarni afzal ko'radi. Televizorni asosan 46 yoshdan oshgan shaxslar ko'radi, 10–29 yoshdagi yoshlar Internetdan foydalanadi. Insonlarning Internetga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda va televideniye axborot iste'molidagi roli asta-sekin pasaymoqda. O'zbekiston aholisi ijtimoiy tarmoqlarda 33,9 % qarindoshlar, do'stlar va hamkasblar bilan muloqotda 15,8 % foiz ma'lumot almashadi. O'zbekistonda internet foydalanuvchilari orasida erkaklar 55 % ni, ayollar 45 % ni tashkil etadi.

O'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra, O'zbekistonda eng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar – «**Telegram**» **73,4 %**, «**YouTUBE**» **42,7 %** va «**Instagram**» **27,4%** ni tashkil etgan.

O'zbekistonda eng ommabop ijtimoiy tarmoqlardan «**Instagram**» **8 mln**, «**Facebook**» **2,2 mln**, «**VKontakte**» va «**Odnoklassniki**»ning umumiy auditoriyasi – **2 mln** foydalanuvchilarni tashkil etgan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda asosan messenjer hisoblangan «Telegram»ni afzal ko‘radi. 200 mlndan ziyod foydalanuvchilari bo‘lgan «Telegram» – O‘zbekistonda 18 mlndan ortiq kishiga xizmat ko‘rsatmoqda».

Ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilar matnli postlardagi ma’lumotlarni kamroq qabul qiladi, ko‘proq videokontentga qiziqadi.

2.3. Jamiyatda asosiy foydalanib kelinayotgan ijtimoiy tarmoqlar.

Mamlakatimizda internet va unga aloqador texnologiyalarning rivojlanishi uning yetakchi ommaviy axborot vositalariga, zamonaviy jamiyatning barcha tuzilmalari faoliyatini ta’minlaydigan eng muhim axborot resursiga, shuningdek, tashkiliy va texnologik asosga aylanishiga olib keldi. O‘zbekistonga internetning kirib kelishi va mamlakat aholisining undan samarali foydalanishi natijasida yangi axborot manbalariga ega bo‘lmoqdalar.

Natijada insonlar olayotgan axborotlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotida muhim rol o‘ynamoqda.

XX asrning oxiriga qadar mamlakatimizning ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy hayotida, asosan, badiiy kitob, gazeta va jurnallarga qiziqish katta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bularning o‘rnini tezkor axborot manbayi – ijtimoiy tarmoqlar egallay boshladi.

Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan bir paytda yoshlarimizning ongini o‘rab-chirmab emas, balki ularning ma’naviy tarbiyasiga alohida urg‘u berib, ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga o‘z qobig‘imizga o‘ralmagan holda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishimiz kerak. Chunki bugungi kunda yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasi yo‘lga qo‘yilgan.

Globallashuv jarayonida bugungi yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan xabarlar ham tuzatib bo'lmaz darajada ziyon keltirishi mumkin. O'zbekistonda internet global axborot kompyuter tarmog'ining imkoniyatlari va rolini tahlil qilish shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda quyidagi ijobiy natijalarni ko'rsatadi: Internetdan o'ziga xos «ommaviy aloqa vositasi», ulkan axborot bazasi sifatida foydalanish, monitoring, ilmiy ish, ijodkorlikni tashkil etishning kuchli vositasi. Internet yordamida jahon elektron bozori, elektron biznes shakllanmoqda. Siyosiy sohada internet insonni shaxs sifatida bir yo'nalishli mafkura ta'siridan himoya qiladi. Internetning eng yorqin xususiyatlari uning o'ziga xosligi, millatlararoligi, ochiqligi, chiziqli bo'lmaganligi, murakkabligi, integratsiyasi va universalligida namoyon bo'ladi.

Global axborot tarmog'ining rivojlanishida yuzaga keladigan asosiy muammolarni quyidagicha tavsiflash mumkin: Tarmoqlarda joylashtirilgan ma'lumotlar hajmini nazorat qilishning imkoni yo'q. Turli xil ma'lumotlar paydo bo'ladi, ular orasida axloqiy jihatdan salbiylari ko'p uchraydi. Internet insonning aqliy va jismoniy qobiliyatiga alohida talablar qo'yadi, chunki bu tizimga berilib ketish, ya'ni virtual olamga kirib kelish, real hayotdan uzoqlashishga olib keladi.

Internet jahon axborot tarmog'ida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ'ibot materiallarini berib borish, yoshlarni internetdagi turli axborot xurujlaridan himoyalashga qaratilgan elektron shaklda resurslarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, mafkuraviy tahdidlar orqali yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirishga, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishlar bo'lmoqda. Birgina 2021-yilning dekabr holatiga ko'ra, milliy domen hududidagi 289 ta vebsaytda (1 734 ta qonun buzilish) pornografiya, 91 ta vebsaytda esa (363 ta qonun buzilish) behayolik va ma'naviy buzuvchilikni targ'ib qiluvchi holatlar aniqlangan bo'lib, 2 097 ta qonun buzilish holati qayd etilgan.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek segmentida ma'naviy buzuvchilikni targ'ib qiluvchi 130 ga yaqin guruh, sahifa va kanallar mavjudligi aniqlangan bo'lib, ularda 2 646 ta material (foto, video, matnli va boshqalar) tarqatilgan. Ushbu materiallarning aksariyati «Odnoklassniki» (55 ta guruhning 1 962 ta materiali) va «Instagram» (60 ta guruhning 684 ta materiali) ijtimoiy tarmoqlarning hissasiga to'g'ri keladi. 2021-yilda axloqsizlik, behayolikni targ'ib qiluvchi 1 650 ta veb-saytdan mamlakat hududida foydalanish belgilangan tartibda cheklangan.

Eng ommabop bo'lgan «Telegram» messenjeridagi 35 ta faol kanalda odob-axloq talablariga mos kelmaydigan o'zbek auditoriyasiga qaratilgan 7 738 ta material mavjudligi aniqlangan. Birgina «Telegram» messenjeri va «TikTok» videoplatformasining O'zbekiston auditoriyasi uchun yo'naltirilgan resurslarida fahsh yoki pornografik kontent orqali auditoriya to'plash va reklama hisobidan daromad topishga qaratilgan 7 ta kanal aniqlangan (umumiy obunachilari soni – 120 721 nafar).

«Telegram» messenjerida umumiy obunachilari soni 44 479 nafar bo'lgan aqidaparastlik yoki ekstremistik mazmundagi virtual 43 ta resurs mavjudligi, xuddi shu mazmundagi materiallarning tarqatilishi va targ'iboti bilan «TikTok» videoplatformasida 20 ta profil faoliyat ko'rsatayotgani, uning umumiy obunachilari soni 25 458 nafarni tashkil etgan.

«Instagram» tarmog'ida qurol-yarog'lar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi 2 ta sahifa mavjud bo'lib, kanalning umumiy a'zolari soni 17 924 nafarni tashkil etadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, o'quvchi yoshlarning ongiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axloqsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlarga qarshi kurashish, diniy adovatni qo'zg'atuvchi, tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar, totalizatorlar, oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan hamda jamiyatda buzg'unchilik g'oyalarini targ'ib etadigan veb-resurslarni doimiy ravishda cheklab borish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Eng ommabop bo'lgan 10 ta ijtimoiy tarmoqlar tahlil qilinda quyidagi manzara paydo bo'ldi:



1. Facebook. Bu ijtimoiy tarmoq 2004-yilda AQShda tashkil etilgan bo'lib, butun dunyoda eng mashhur sotsial saytlardan biri, dunyo aholisining qariyb 3 mlrd a'zosi bor. Butun dunyodagi ma'lumotlardan yoki yangilikdan qisqa vaqt ichida xabardor bo'lish imkoniyati bor. Xavfsizlik tizimi kamroq, shaxsiy ma'lumotlar va rasmlar oson o'g'irlanishi mumkin. Ko'p vaqt saytda qolish vaqtini behudaga ketkazadi. Facebook ichida turli mavzuga oid ma'lumotlar bo'ladi va boshqa ish bilan shug'ullanish yoki boshqa saytga o'tishga undamaydi. Hamma qo'yilgan ma'lumotlar ko'ringanidek haqiqiy bo'lmaydi. Eron, Uganda, Turkmanistonda faoliyati cheklangan.



2. YouTube. Bu ijtimoiy tarmoq ham 2005-yilda AQShda tashkil etilgan bo'lib, u keng mazmunda va turli xildagi videolarini o'z ichiga oladi, kirish bepul bo'lgan platformadir. Unda hech qanday ilmiy asosga ega bo'lmagan va bir mavzuni asossiz turlicha yoritilgan videolar topilishi, tarqalayotgan ba'zi videolar jamiyatning qarashlariga har doim ham to'g'ri kelmasligi mumkin. Xitoy, Eron, Eritreya, Turkmanistonda faoliyati cheklangan.



3. Reddit. 2005-yili AQShda tashkil etilgan bu tarmoqdan foydalanuvchilar turli mavzular bo'yicha ma'lumotlar, tushunchalar va munozaralarni topishlari mumkin. U yangi narsalarni o'rganish va kundalik voqealardan xabardor bo'lish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Bu muqobil fikrlarni taqdim etish va munozaralarni rag'batlantirish orqali o'z tushunchasini kengaytirishi, oldingi tushunchalarga qarshi turishi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin. Reddit qimmatli ma'lumotlarni taqdim eta olsa-da, kontent va manbalarning ishonchliligi haqida ehtiyot bo'lish muhimdir. Ochiq platforma

sifatida har kim o'z fikrini yozib qo'yishi mumkin, ya'ni noto'g'ri ma'lumotlar, mish-mishlar yoki noxolis kontent ham tarqalishi mumkin. Foydalanuvchilar faqat o'xshash odamlar bilan muloqot qilishi orqali faqat bir doirada suhbatlashadigan bo'lib qolishi ehtimoli katta. Bu tarmoq Xitoy, Indoneziya, Turkiya davlatlarida taqiqlangan.



4. Odnoklassniki. Sinfdoshlar, kursdoshlar, sobiq bitiruvchilar hamda qarindosh va yaqinlarni izlab topish va ular bilan aloqa qilish uchun yaratilgan ko'p tilli ijtimoiy tarmoq bo'lib, 2006-yili Rossiya Federatsiyasida tashkil etilgan. Bu saytdan ko'p foydalanish vaqtini behuda sarflanishga olib keladi, bundan tashqari asoslanmagan turli ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Turli shakldagi mazmunsiz yoki yoshlarning ongiga salbiy ta'sir qiluvchi videolarni yuklash mumkin. Turli xildagi rasmlar, videolar va boshqa ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida barcha do'stlarga yuborish, yangiliklardan tezda xabardor bo'lish imkoniyatiga ega.



5. VKontakte. 2006-yili Rossiya Federatsiyasida tashkil etilgan. Foydalanuvchilarga turli mavzularda muloqot qilish, fotosuratlar va videolarni yuklash va muhokama qilish, musiqa yuklab olish va tinglash va h.k. uchun yaratilgan saytdir. Kamchiliklari shundaki, VKontakte aloqasidan ko'p foydalanish savodxonlik darajasini pasaytiradi va foydalanuvchilarni doimiy foydalanishga o'rgatib qo'yishi mumkin. Ko'plab beriladigan sharhlar asossiz va foydalanuvchi fikrlarini chalg'itishga olib keladi. Ukraina, Turkmaniston davlatlarida faoliyati cheklangan.



6. Twitter. 2006-yil AQShda tashkil etilgan. Bu sotsial sayt orqali yangiliklar va ularni olish uchun mashhur odamlarni kuzatib borishingiz mumkin. Ko'plab Twitter akkauntlari soxta, ular kimnidir aldash va bezovta qilish uchun yaratilgan. Ko'plab beriladigan sharhlar asossiz va foydalanuvchi fikrlarini chalg'itishga olib keladi.



7. WhatsApp. 2009-yili AQShda tashkil etilgan. Ma'lumot almashish platformasi vazifasini bajaradi. Global ulanishni ta'minlaydi. Barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun qulay hisoblanadi. WhatsAppdan ortiqcha foydalanish tufayli virtual haqiqatdan uzoqlashiladi. Foydalanuvchilar odamlar bilan shaxsan muloqot qilish o'rniga telefonda bo'lishni afzal ko'radilar. Ushbu platforma orqali ko'plab nomaqbul ma'lumotlar va kontent tarqatilishi mumkin. Eron, Suriya, Turkmanistonda taqiqlangan.



8. Instagram. 2010-yilda AQShda tashkil etilgan bo'lib, faoliyatining asosiy xususiyatlari foydalanuvchilar o'z ijodini ifodalash va o'z qiziqishlarini boshqalar bilan baham ko'rish, yangi narsalarni sinab ko'rishga va yangi joylarni kashf etishga ilhomlantirishdan iborat. Foydalanuvchilar o'zlarini boshqalar bilan solishtirishga va o'zlarining tashqi ko'rinishi, yutuqlari va mashhurligi ular bilan yetarli darajada emasligiga yoki o'zlarini ishonchsizlikni his qilishlariga olib kelishi, juda ko'p foydalanish esa uyqu tartibini buzilishga olib keladi. Turli toifadagi video va rasmlarning nazoratsiz, erkin qo'yilishi etika qoidalariga zid. Xitoy, Belorussiya, Eron, Uganda, Turkmanistonda faoliyati cheklangan.



9. Telegram. Ushbu messenjerga 2013-yil Rossiya Federatsiyasida asos solingan. Telegram xabar almashishdan tashqari amaliy ilovalarga boy bo'lgan xususiyatlarga ega. U WhatsApp va Viberga biroz o'xshaydi, ammo uning xususiyatlari biroz murakkab. Bu xususiyatlarga ovoqli qo'ng'iroqlar va video qo'ng'iroqlar, guruh chatlari, xabarlarini tashkil etish, chatbotlar, maxfiy chatlar, stikerlar va kanallar kiradi. Telegramda turli guruhlar ochish va ulardagi guruh a'zolarining soni cheklanmagan sonda bo'ladi. Telegramni bloklagan davlatlarning aksariyatida turli xil guruhlar telegramda birlashib, davlatga qarshi siyosiy harakat olib borishgan. Eron, Bahrayn,

Xitoy, Kuba, Iroq, Norvegiya, Pokiston, Tailand, Turkmaniston kabi davlatlarda ushbu tarmoq taqiqlangan.



10. TikTok. Bu ijtimoiy tarmoq 2016-yilda Xitoyda tashkil etilgan bo‘lib, qisqa vaqtda biror-bir holatni musiqa fonida qisqa shaklda namoyish etishga imkon beruvchi sotsial sayt. Unda ma‘lum bir vaqtda mashhur musiqaga urg‘u berishi va ko‘plab videolarda so‘kinish va shahvoniy so‘zlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Avtomatik tarzda tanlanadigan musiqa yoshlarni mustaqil ravishda fikrlashiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu esa kelajakda ularning mustaqil fikrlashiga ta‘sir ko‘rsatadi. Turli shakldagi mazmunsiz yoki yoshlarning ongiga salbiy tasir qiluvchi videolarni yuklash mumkin. Xitoy, Pokiston, Senegal, Somali, Ozarbayjon, Turkmaniston, Nepalda faoliyati cheklangan.

2.4. Ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta‘siri.

Bugun butun dunyoda ko‘plab insonlar ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib kelmoqda. Bu insoniyat uchun juda ko‘p sohalarda keng imkoniyat va qulayliklar ochib berdi. Ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Har kuni ertalab o‘rnimizdan turganimizda, ko‘p hollarda, albatta, telefonimizni qo‘limizga olamiz va Telegram, Instagram yoki Facebook kabi tarmoqlarga kiramiz. Bulardan foydalanishning ko‘pgina afzalliklari bor. Biz bu ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘pgina kerakli ma‘lumotlarga ega bo‘lishimiz, yangi do‘stlar orttirishimiz, yangiliklardan xabardor bo‘lishimiz, yangi narsalar o‘rganishimiz, do‘stlarimiz bilan suhbatlashishimiz mumkin. Hattoki, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o‘z bizneslarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ular o‘z mahsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilib brendlarini tanitish, o‘zlari uchun xaridorlar auditoriyasini yig‘ish va yangi mahsulotlarini xaridorlarga e‘lon qilishlari mumkin. Bu albatta ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning biz uchun afzalliklari. Lekin afsuski, har doim ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish biz uchun foydali bo‘lmaydi.

Keling, ijtimoiy tarmoqlarning zararli taraflariga bir nazar solsak. Ularni bir necha turlarga ajratish mumkin:

1. Vaqtni behuda sarflash. Ko‘pincha biz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni me‘yorida oshirib yuboramiz va ko‘p vaqtimizni yo‘qotib qo‘yamiz. Misol uchun Tiktok ijtimoiy tarmog‘ini olaylik. Ko‘p hollarda Tiktokga bemaqsad kiramiz va juda ko‘p vaqtimizni bu ijtimoiy tarmoqda shunchaki bema‘ni videolarni tomosha qilish bilan o‘tkazamiz. Vaholanki, bizda boshqa muhim vazifalar yetarlicha bo‘ladi va biz bu vazifalarni yaxshi bajara olmaymiz yoki umuman bajarmaymiz. Bu juda yomon.

2. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik. Ijtimoiy tarmoqlar biz uchun juda muhim bo‘lishiga qaramasdan, ulardan har doim ma‘lum bir maqsad bilan foydalanish kerak, aks holda, biz shunchaki ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo‘lib qolishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish yaxshilikka olib kelmasligi haqida turli tibbiyot xodimlari va psixologlar xulosalar berishadi. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda go‘yoki narkotik moddadek ta‘sir qiladi va o‘ziga o‘rgatadi.

Nottingham Trent universiteti olimlari kishi ruhiy xarakteristikasi, shaxs tipi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o‘rtasidagi aloqalar haqidagi ilmiy adabiyotlarni o‘rganib chiqdi. Tadqiqot mualliflari quyidagi xulosaga keldi: «Ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish sindromi haqida gapirish uchun barcha asoslar mavjud. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda juda ko‘p vaqt o‘tkazuvchi bir qator kishilarda shaxsiy hayotdan qochish, butun e‘tiborni ijtimoiy tarmoqqa qaratish, haqiqatdan uzoqlashish, kayfiyatning keskin tushishi, real hayotdan uzoqlashish istagini yashirish kabi qaramlikning barcha belgilari kuzatiladi».

Bu turdagi insonlarda birdaniga tarmoqlardan voz kechish, ularga ruhiy shikast yetkazish bilan bir qatorda, jismoniy sog‘lig‘iga ham zarar yetkazishi aniqlangan. Tadqiqot mualliflaridan biri Fil Rid bu holatni quyidagicha ta‘riflaydi: «Internetda juda ko‘p vaqt sarflovchi kishilar mobil qurilmadan foydalanishni to‘xtatganda, tashvishli holatga tushib qolishi bizga ancha ilgaridan ma‘lum edi.

Biroq hozir ruhiy holatdagi o'zgarishlar real jismoniy o'zgarishlar bilan birga kechishini aniqladik».

3. Insonlarda stress va tashvishli holatlarni keltirib chiqarish.

Insonlar o'zi shusiz ham muammoli va tashvishli hayotini ijtimoiy tarmoqlar natijasida ikki karra oshirishga erishmoqdalar. Tarmoqlar orqali dunyoda, jamiyatda, ish faoliyatida va turli do'stlar orasida yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatar ekanmiz, uning bizning hayotimizga ta'sirini o'zimiz bilgan hamda bilmagan holda tahlil etamiz, xulosa qilamiz. Inson instinktida tahdiddan, xavfdan himoyalanish har qanday holatda ustunlik qiladi. Natijada, tarmoqlar orqali berilayotgan salbiy xabarlar oqibatida tashvishga tushadi va stressga beriladi.

Shuningdek, aksariyat insonlar kundalik stress va tashvishlardan uzoqlashish uchun ijtimoiy tarmoqlardan panohtopishga urinishadi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar stresni ozaytirish uchun emas, aksincha, ruhiy ziqlik va asabiylikni orttirish uchun xizmat qiladi. 1800 ko'ngilli qatnashgan sinov tajribasida, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan ayollar erkaklardan ko'ra ko'proq ruhiy ziqlikka giriftor bo'lishi ko'rsatilgan. Boshqa insonlarga stress va ruhiy iztiroblarini ulashayotgan Twitter esa, ijtimoiy tarmoqlar ichida eng katta stress manbayi ekanligini ko'rsatgan. Tadqiqotlar, ayollar Twitterdan foydalanganda, erkaklarga nisbatan kamroq ruhiy ziqlikni boshdan kechirishlarini ta'kidlaydi.

4. Ijtimoiy izolyatsiya. Mazkur salbiy holat insonlarni jamiyatdan ijtimoiy tarmoqlar natijasida chegaralanishini anglatadi. Ya'ni insonlar ijtimoiy tarmoqlar natijasida jonli ijtimoiy muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Bu holat bugungi kunda bolalar va yoshlar o'rtasida uchrayotganligi achinarli holat. Natijada, bolalarda muloqot qilish qobiliyatining yetishmasligi, insonlar orasida o'zini noqulay his etish, o'z qobig'iga o'ralib olish, muammolarni mustaqil hal eta olmaslik, fiziologik va boshqa muammolar yuzaga kelmoqda.

Lekin shuni ham aniqlash kerakki, insonlarda dastlab nima paydo bo'lgan – yolg'izlik hissimi yoki ijtimoiy tarmoqlarga qiziqish? Bu haqida tibbiyot fanlari doktori va pediatriya professori Elizabet

Miller shunday deydi: «Ehtimol, dastlab oʻzlarini yolgʻiz his qilgan yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga qiziqish bildirishgan yoki ijtimoiy tarmoqlardan koʻp foydalanish haqiqiy hayotdan ajralib qolishga olib kelgan. Bu ikki omil uygʻunligi ham boʻlishi mumkin».

Yoshlar oʻrtasidagi oʻlim koʻrsatkichining oshishiga sabablardan biri izolyatsiya hissining mavjudligidadir. «American Journal of Preventive Medicine» tibbiy jurnali yetakchi tadqiqotchisi Brayan Praymak: «Biz tabiatimizga koʻra, ijtimoiy mavjudotmiz, biroq zamonaviy hayot bizni yaqinlashtirish oʻrniga bir-birimizdan uzoqlashtirmoqda. Aftidan, ijtimoiy media muloqotdagi boʻshliqni toʻldirish imkonini beradi, biroq tadqiqot bu insonlar umid qilishi mumkin boʻlgan yechim emasligini koʻrsatdi» – deya taʼkidlaydi.

5. Axloqsizlik. Bugun jamiyatda shunday parda koʻtarildiki, Abdulla Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» romani qahramonlari munosabatlaridagi odob va axloqni unutib qoʻymoqdamiz. Yer yuzining turli burchaklaridagi tushuncha, harakat va/yoki munosabatlarni hech qanday filtrlarsiz oʻzimizga qabul qilmoqdamiz hamda amaliyotga joriy etmoqdamiz. Natijada jamiyatda hayo, iffat, odob, axloq, hurmat, izzat shu kabi bir qator maʼnaviy tushunchalar yoʻq boʻlishiga erishmoqdamiz. Real hayotda odatiy koʻringan insonlar virtual hayotda salbiy maʼnoda oʻzgacha ekanligini koʻrishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi axloqsizlik yurtimizda cheklanganligiga qaramay, faoliyat koʻrsatayotgan Tiktok tarmogʻida eng yuqori choʻqqisiga chiqqan. Masalan, Tiktokdagi «battle» bellashuvini olaylik. Ikki nafar ishtirokchi qoidaga koʻra maʼlum vaqt davomida turli axloqsiz soʻzlar va harakatlarni amalga oshirgan holda ball yigʻishga harakat qiladi. Oʻz navbatida kuzatuvchilar oʻzi muhlik qilayotgan ishtirokchini yutishi uchun turli yoʻllar bilan unga koʻproq ovoz berishga intiladi. Eng koʻp ovoz toʻplagan ishtirokchi kam ovoz toʻplagan ishtirokchini turli odob, axloq va hayo normalari toʻgʻri kelmaydigan shartlarni bajarishga majbur qiladi hamda haqoratli soʻzlarni aytadi. Albatta, buni bajarmaslik mumkin-ku degan oʻy kelishi mumkin, bizning hayolimizga. Lekin

Tiktok platformasi orqali bu faoliyat moliyalashtirilayotganligi va qo‘llab-quvvatlanayotganligi sababli ishtirokchilar uchun arzimagani harakatlar ortidan mo‘maygina daromad ishlab olish imkoniyatining mavjudligi ularning doimiy faoliyatiga aylanib ulgurdi. Eng achinarlisi unda ayol va qizlarning, yoshlarning ishtirokidir.

6. Firibgarlik. Bugun biz turli manbalar orqali M. ismli shaxs B. ismli shaxsni faloncha so‘mlik mablag‘ini firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritdi yoki shunday ishni qilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortildi kabi xabarlarini eshitamiz. Shuningdek, turli so‘rovnomalar, tanlovlar, aksiyalar, o‘yinlar, ulkan meros qoldirish, qoldirayotgan merosini rasmiylashtirish, tez boyib ketish to‘g‘risidagi spam xabarlar va shunga o‘xshash boshqa feyk axborotlar orqali fuqarolarning shaxsiga doir ma‘lumotlarini firibgarlik yo‘li bilan o‘g‘irlash odatiy holga aylanmoqda.

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi xabariga ko‘ra, o‘g‘irlanayotgan ma‘lumotlar orasida foydalanuvchilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, manzili, shaxsni tasdiqlovchi hujjati, elektron pochta va sahifasi, ID kartasi va to‘lov kartochokalari (paroli, pin-kodi), hisob raqamlari va boshqa to‘lov manbalari mavjud.

Aslida firibgarlik so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor qaratsak, uning asosida aldovchilik, yolg‘onchilik yotadi. Ya‘ni firib – aldovchi, aldovchilik, yo‘ldan ozdirish, hiyla, makr kabi ma‘nolarni anglatadi. Kishini qastdan adashtirish, qo‘lga tushirish, aldashdir. Firibgarlik mazkur faoliyat bilan shug‘ullanish faoliyatini anglatadi.

7. Jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish. Yuqorida ta‘kidlaganimiz firibgarlik ham jinoiy faoliyatning bir turi sanaladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda jinoiy faoliyatning turlari bisyordir. Ulardan keng tarqalgani bezorilikdir. U ilmiy adabiyotlarda «Cyberbullying» deb nomlanadi. Bezorilik faqat yuzma-yuz sodir bo‘lmaydi. Cyberbullying paytida amalga oshiriladigan tahdidli xatti-harakatlar nafaqat mish-mishlar, jinsiy tahdidlar va kamsituvchi so‘zlar kabi tahdidli xabarlarini yuborish, balki kamsitishga qaratilgan shaxsiy ma‘lumotlar va fotosuratlarini almashishni ham o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda ijtimoiy tamoqlarda sodir etiladigan jinoyatlar jinoyatlarning kiberjinoyatlar turiga mansubdir va asosiy jinoyatlar ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilmoqda. Jinoyatchilarning jinoyatlarini bir shaxs doirasidan hukumatga hujum darajasigacha klassifikatsiya qilish mumkin. Kiberjinoyatlar asosan 3 xil toifada amalga oshiriladi, ya'ni:

a) *Shaxslarga qarshi kiberjinoyatlar.* Kiberjinoyatning ushbu toifasi odatda zararli dasturiy ta'minot yoki shubhali ma'lumotlarni onlayn tarqatishi mumkin bo'lgan bir shaxsni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, jismoniy shaxslarga qarshi jinoyatlar identifikatsiyasini o'g'irlash, kiber ta'qib qilish, qoralash, firibgarlik, bolalar pornografiyasini tarqatish, kredit kartalari bilan firibgarlik va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Uning ta'sirida shaxsda stress, tashvish, depressiya va hatto o'z joniga qasd qilish holatlari uchraydi.

b) *Mulkg qarshi kiberjinoyatlar.* Kiberjinoyat mulkning barcha turlariga nisbatan kiberjinoyatlarning ikkinchi turidir. Odatda firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan sodir etiladi. Ayniqsa, bugungi kunda telegram messenjeri orqali yuborilayotgan turli ilovalar foydalanuvchini turli moliyaviy ma'lumotlarini o'zlashtiradi va jinoyatchi ushbu ma'lumotlar asosida moliyaviy jinoyat sodir etadi.

d) *Hukumatga qarshi.* Ushbu turkum kiberjinoyatlarning eng og'iri hisoblanib, kiberterrorizm deb ham ataladi. Buni biz odatda turli noqonuniy diniy tashkilotlar misolida ko'rishimiz mumkin. Ularning faoliyati asosan dinni niqob qilgan holda o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshiradi. Bu toifaga ko'ra, kiberurush jinoyatchilikning o'ziga xos shaklidir. Internetning yuksalishi odamlar va tashkilotlar kibermakondan mamlakat aholisiga xorijiy hukumatlar bilan tahdid qilish uchun foydalanishini ko'rsatadi. Odatda, bu jinoyatlar terrorchilar yoki dushman davlatlarning hukumatlari tomonidan sodir etiladi. Ushbu jinoyatlarga maxfiy ma'lumotlarga kirish, xakerlik, kiberurush, pirat dasturiy ta'minot va boshqalar kiradi.

III. TARMOQLARDA BOLA XAVFSIZLIGI

3.1. Avlod kim?

Inson aql idroki rivojlanishi va ilm fandagi ulkan yutuqlar jamiyat rivoji bilan birgalikda uning tabiiy va biologik xususiyatiga sezilarli ta'sir etayotgani bugungi odamlarning yuz tuzilishidan tortib, dunyo qarashlarida ham sezilarli darajada o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. XXI asr bolalari bundan 10–15 yillar avval «kompyuter texnologiyalari» asri bolalari, so'ngra «raqamli texnologiyalar» va «nano texnologiyalari» asri bolalari degan so'zlar bilan almashib ulgurmasdan «sun'iy intellekt» bolalari atamasi kirib kelib, katta avlod va yetishib kelayotgan avlod vakillari o'rtasidagi farqni keskin oshirib yubormoqda. Go'dakligidan internet va portativ raqamli texnologiyalar og'ushida voyaga yetayotgan bolalar hech qanday raqamli savodxonlikka oid bilimga ega bo'lmasdan turib, gadjet va smartfonlarning barcha funksiyalaridan mustaqil foydalanish qobiliyatiga ega.

«Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati» kitobida avlod tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Avlod – tor ma'noda alohida bir shaxs, oila yoki sulolaning davomchisi bo'lgan farzandlar va ularning zurriyotlari, keng ma'noda esa millat, xalq, sivilizatsiya rivojining muayyan bosqichida yagona g'oya, maqsad va vazifalar bilan maydonga chiqadigan, taraqqiyot jarayonida uzviylik va davomiylikni ta'minlab, o'z davri qiyofasini belgilab beradigan, ijtimoiy hodisa darajasigacha ko'tariladigan kishilar».

Davlatimiz rahbari «avlod» xususida so'z yuritganda: «Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq» – degan fikrlarni ilgari suradi. Haqiqatdan ham insoniyat tarixida ilk bor mutaxassislarining ma‘lumotlariga ko‘ra, yer yuzida istiqomat qiluvchi kishilarning katta qismini tashkil qiluvchi yosh avloddan tashkil topgan davrda hayot kechirmoqdamiz. Shunday ekan, inson qalbi va ongi uchun kurash jarayonida yot kuchlarning quroliga aylanishi mumkin bo‘lgan yoshlar bilan muosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun har bir avlod xususiyatini alohida o‘rganish talab etiladi.

«Avlodlar» xususida so‘z borar ekan, bu tushunchaning birinchi ma‘nosi – umumiy ajdodlaridan qarindoshlik munosabatlari bilan bir xilda uzoqlashgan kishilar guruhi bo‘lsa, ikkinchi ma‘nosi esa – ma‘lum davr kishilari, ya‘ni ma‘lum bir tarixiy davrda tug‘ilgan bir guruh odamlar majmuasi sifatida izohlaymiz.

Bugungi avlodni «Z-zed» avlod yoki zoomerlar deb atash mumkin va ular 1996–2010-yillarda tug‘ilgan bolalarni qamrab oladi. Shunigdek, postmodernizm va globallashuv davrida tug‘ilgan odamlar toifasidir. Aytishimiz mumkinki, ular qo‘llarida smartfon yoki planshet bilan tug‘ilgan bolalardir. Shubhasiz, siz o‘zingiz farzandlaringiz yoki do‘stlaringiz bilan bir necha bor payqagansiz, bola hali o‘qish yoki gapirishni bilmaydi, lekin u planshet yoki kompyuterni qanday yoqishni biladi.

Boshqacha qilib aytganda, zoomerlarni tarbiyalashda nafaqat ota-onalar, balki YouTube, Tiktok, Instagram va zamonaviy texnologlar bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘plab blogerlar ham ish-tirok etadilar. Ularning hovlida do‘stlar bilan bolalik xotiralari yo‘q. Shuning uchun ular jamoada ishlash tajribasiga ega emaslar.

«Z» ya‘ni bugungi yosh avlod alohida auditoriya hisoblanadi. Biz ularni axborot ummoniga g‘arq bo‘lgan yoki yangiliklar to‘fonida qolib ketgan deb o‘ylaymiz, – deydi Beruniy Alimov. – Vaholanki, yosh avlod faqat o‘ziga kerakli bo‘lgan axborotni, xususan, qisqa hajmdagi matnlarni o‘qiydi. Tahliliy materiallarga e‘tibor bermaydi.

Nima uchun? Sababi, ular har sohadan bir shingil yangilik topishni istashadi. Chunki ularda «qisqa o‘ylash» (inglizcha «clip thinking», ruschada «клиповое мышление») juda yaxshi shakllangan. Bitta axborot mavzusiga chuqur kirib borishga yoki bir mavzuga atroflicha tahliliy yondashilgan materialni o‘qib o‘tirishga ularda vaqt ham, imkoniyat ham chegaralangan. Shundan kelib chiqib, ular biror masalaga jiddiy va chuqurroq kirishishga o‘zlarida sabr-toqat topa olmaydi. Masalan, agar videosyujet bo‘ladigan bo‘lsa, undagi 1–2 daqiqalik axborotni yaxshi ko‘rib, tomosha qiladi. Ular uchun matnli yangilikka nisbatan videoyangiliklar ko‘proq qiziq. Shu sababli media mutaxassislar prognoziga ko‘ra, keyingi 2 yil ichida media makondagi yangiliklar kontentining 80–82 foizini aynan videomateriallar egallaydi. Ya’ni zamonaviy o‘quvchi quruq matn bilan qoniqmaydi, ularning ishonchi va e’tiborini qozonish uchun ularga ko‘proq foto va videomateriallardan iborat vizual axborotlarni berish talab etiladi.

Bugungi kunda axborot oqimining kuchayishi va uni olishdagi imkoniyatlarning kengayishi natijasida «Z» avlod vakillari biror kasbni egallash yoki biror ishni boshlashdan oldin «Bu o‘zidan avvalgi davrda qanday bo‘lgan va hozirgi vaqtda qanday samara beryapti», degan savolni o‘rtaga qo‘yib taqqoslaydi, – deydi Yoshlarga ijtimoiy psixologik xizmat ko‘rsatish markazi psixologi Gulbahor Yusupova. – Ana undan keyin xulosa chiqaradi. Bir tomondan bu yaxshi. Lekin ikkinchi tomondan, ular juda katta axborot oqimi ichida qolib ketyapti. Bu avlod vakillari orasida mustaqil bo‘lishga intilish yoshi tobora yosharib bormoqda. Bundan bir necha yil avval bolalar o‘smirlikka qadam qo‘yganida, ya’ni 12–15 yoshlar oralig‘ida mustaqil bo‘lishga intilar edi. Bugungi kunda esa ayrim yoshlarning hatto o‘smirlik davriga o‘tmasidan avval ham o‘zini individual shaxs sifatida tan olishlarini istaydiganlari ko‘zga tashlanmoqda. Bu avlodga xos yana bir xususiyat ularda atrofdegilarga nisbatan shaxsiy fikr va tashxisning borligidir. Ular

tez hazm bo'ladigan qisqa, lo'nda, tushunarli axborotlarni iste'mol qiladi. Bu avlod vakillariga axborotni publitsistik-ommabop va so'zlashuv uslubida yetkazish maqsadga muvofiqdir.

3.2. Farzand tarbiyasida ota-onaning burch va mas'uliyati.

Ma'naviy-ruhiy tarbiyaning ijtimoiy asoslaridan biri oiladir. Milliy va diniy mafkuramizga xos tushunchalar, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Tarbiya masalasida ota-ona doimo mas'ul va javobgar hisoblanadi. Bejizga Sharq mutafakkiri Abdulla Avloniy «Tarbiya oldin ota-ona, keyin maktab ishidir» deb ta'kidlamagan.

Oila, har bir ota-ona dunyoga kelgan farzandini yashash huquqini ta'minlash, unga chiroyli ism berish, bolani moddiy ta'minlash, tarbiya berish, vatanga va insoniyatga mehribon qilib ulg'aytirishga mas'ul sanaladi. Xususan, Islom falsafasida tarbiya borasida ota-onaning farzandi oldidagi burchlari 3 qismdan iborat. Bular:

- ✓ bolaga odob o'rgatish;
- ✓ bolaga ta'lim o'rgatish;
- ✓ bolaga jismoniy tarbiya berish lozimligi bilan belgilangan.

Bundan tashqari, ota-onaning farzand oldidagi burch va mas'uliyati xususida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ota-onalarning farzandi oldidagi burchlari qat'iyon belgilab berilgan.

Xususan, Konstitutsiyamizning 77-moddasida «Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetgungacha qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi» deb belgilangan bo'lsa, 78-moddasida «Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari

va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi» deb belgilab qo'yilgan.

Biz ota-ona burch va mas'uliyati to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushinib olishimiz kerak.

Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha hisoblanadi.

Burch – ma'naviy sohada yuksak mas'uliyat, mustahkam e'tiqod, lafzi halollik, huquqiy sohada qonunga itoatkorlik, belgilangan me'yoriy hujjatlar asosida ish yurituvchi, yuklatilgan majburiyatni anglash va uni to'liq bajarishni nazarda tutadi. Shunday ekan, oila tashkil topgandan keyin ota-onaning o'z-o'zidan amalga oshirishi zarur bo'lgan burchlari vujudga keladi.

Oilada ota va ona burchlari quyidagilardan iborat:

– ota-ona farzand ko'rishdan oldin ota-onalikka munosib bo'lishi;

– farzand tug'ilgandan so'ng unga munosib va chiroyli ism qo'yishi;

– har bir bola ota-onasi tomonidan moddiy ta'minlanishi;

– ta'lim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishi;

– farzandini o'qish, bilim olish va mehnatga o'rgatish;

– bolani sevish va hurmat-izzatini joyiga qo'yish;

– bola manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilish;

– ota-onalar o‘z farzandlarini tarbiyalash va ta’lim berishga majburligi kabi burchlari mavjud.

Ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati.

Ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zaro ishonch va hurmatga asoslanishi oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat va sog‘lom muhitni vujudga keltiradi. Shunday xususiyatlar asosida tashkil topgan oilada ota va ona o‘zining farzand tarbiyasi oldidagi mas’uliyatini to‘laqonli anglaydi.

Mas’uliyat deganda insonning ongli ravishda belgilangan vazifasini sidqidildan ado etish jarayoniga aytiladi.

Oilalarda ota-ona farzand oldidagi quyidagi mas’uliyatlarni bajarishi lozim:

- farzand tarbiyasida ota-ona doimiy ravishda ma’naviy, axloqiy, diniy, tarbiyaviy bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib borishi;
- oilada muammolar yuzaga kelganda o‘zaro maslahat, tushunish hamda kengashish ana’anasiga asoslanishi;
- ota-ona o‘zida ijobiy shaxsiy namuna va o‘rnak ko‘rsatish tamoyili asosida farzandini tarbiyalab borishi;
- farzandning ota-onaga murojaat qilishida milliy, hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda nomlar bilan atashga o‘rgatish, (masalan: ota, ona, dada va boshqalar);
- tarbiyada eng muhim vosita – mehr va shirinso‘zlikka asoslaniladi;
- bolaning o‘zligini anglatish asosida shaxsiyatini kamol top-tirish;
- farzand tarbiyasida diniy, axloqiy va dunyoviy bilimlarni berishda rag‘bat funksiyasidan samarali foydalanish;
- qat’iy belgilangan tartib, intizom va mas’uliyatga bolada yoshligidan ko‘nikma hosil qilish;
- o‘zini va yaqinlarini himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish;

- bolaning shaxsiy rivojlanishidagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, uning qiziqishlarini aniqlash va iqtidoriga qarab yo‘naltirish;
- bolada mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- bola ta’lim-tarbiyasida loqaydlik va beparvolikka yo‘l qo‘ymaslik hamda doimiy nazorat qilib borish;
- bola erishayotgan yutuqlarini munosib rag‘batlantirish hamda muntazam ruhlantirib borish;
- bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash;
- tarbiya jarayonida erkalash va tanbeh berish o‘rtasidagi muvozanatni yo‘qotmaslik;
- sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish va sport to‘garaklariga jalb etish;
- ta’lim olish davrida doimiy nazoratga olish;
- farzand tarbiyasiga ta’sir etuvchi salbiy omillarga yo‘l qo‘ymaslik;
- bolani tabiat bilan tanishtirish, go‘zal manzaralardan zavq olish orqali atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini shakllantirish hamda estetik tarbiyani rivojlantirish;
- farzand jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ota-ona o‘zini mas’ul ekanligini anglab yetishi;
- ota-ona farzandini komil inson bo‘lib voyaga yetishishida davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etishi;
- bolaning milliy o‘zlik, urf-odat, an’ana va qadriyatlar borasidagi tasavvurlarini oilada kamol toptirish;
- bolada yoshligidanoq ona tiliga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish;
- bola tarbiyasida Vatan taqdiriga daxldorlik va xalq manfaat-lari yo‘lida xizmat qilish kabi g‘oyalar asosida voyaga yetkazish;
- bolada o‘zbek milliy ruhini kamol toptirish kabi ishlarni amalga oshirishda mas’ul hisoblanadi.

Shuningdek, bolalarni ona tabiatga, oilaga, Vatanga muhabbat va vatanparvarlik ruhida kamol toptirishda unga singdirilishi lozim bo'lgan eng muhim qadriyatlar mavjud. Bu qadriyatlar inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nu-fuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasidir. Qadriyat deyilganda biz, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy gu-ruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuyini tushunmog'imiz lozim.

Bolalarga milliy qadriyatlarni singdirish ma'naviy-ma'rifiy ish-lar tizimining tarkibiy qismi sifatida ularni kelajakda turli tashqi tahdidlar hamda el-yurt taqdiriga befarqlik, loqaydlik, mahalliychi-lik kabi salbiy illatlarga berilmaslikda muhim o'rin tutadi. Shunday bir sharoitda bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalash bo'lishi lozimdir. Ta'lim muassasasining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti maz-muni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va hududiy an'analar, tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi zarur. Qadriyatlar turli sohalar va tarmoqlar jihatidan qaralganda bir qan-cha turlarga bo'lish mumkin. Lekin ular ichida qamrov jihatidan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma‘naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi.

Jumladan, yoshlar kattalardan: suvga tupurma, non ustiga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma kabi nasihatlarini eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar.

Bola tarbiyasida o‘zbek milliy ruhini kamol toptirishda milliy qadriyatlarni quyidagi ko‘rinishlarini shakllantirishga e‘tibor qaratish lozim:

1. Tabiiy qadriyatlar hisoblangan:

- insoniylik;
- bag‘rikenglik;
- yashashning eng oliy ne‘mat ekanligi;
- tabiatni asrab-avaylash kabi qadriyatlar.

2. Moddiy qadriyatlar hisoblangan:

- atrof-muhitni ifloslantirmaslik;
- turli tarixiy va davriy inshootlar va buyumlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni o‘rgatish.

3. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar:

- o‘zgalarga yaxshilik qilish;
- kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish;
- qo‘shnilarga nisbatan doimo yaxshi munosabatda bo‘lish;
- oila, mahalla, el-yurt va Vatanni sevish hamda ularni muqaddas deb bilish;

- ishonchlilik;
- umumjamoaviy ishlarda ishtirok etish;
- bag‘rikenglik (tolerantlik);
- milliy bayramlarni qadrlash va unda ishtirok etish;
- mehmondo‘stlik;
- ahillik;
- rahmdillik va mehr-muruvvat ko‘rsatish.

4. Ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar:

- ota-onani e‘zozlash;
- suvga oqilona munosabatda bo‘lish;
- halollik va mehr-oqibat;
- isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik;
- poklik;
- ona tiliga muhabbat uyg‘otish;
- sabr-toqat va mehnatsevarlik;
- ibo, hayo va go‘zal muomalaga o‘rgatish;
- ayol zotiga ehtirom singari milliy qadriyatlarni kelajak avlod davomchilari bo‘lgan bolalarga o‘rgatish barcha ota-ona va ustoz murabbiylarning burch va mas‘uliyatidir.

3.3. Ijtimoiy tarmoqlarda bola xavfsizligi bo‘yicha tavsiyalar.

Ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish bolalar, ayniqsa, yoshlarda ma‘naviy illatlarni avj olishiga sabab bo‘lmoqda. Ming afsuski, hozir yoshlar orasida loqaydlik og‘ir bir dard, xuddi tuzalmas bir xastalikday ildiz otib borayotganga o‘xshaydi.

Yurtimizga xorijdan shiddat bilan kirib kelayotgan, bolalar va yoshlar axloqiga jiddiy ta‘sir etayotgan fahsh va buzuqliklarni targ‘ib etuvchi ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontentlar farzandlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganiga go‘yo beparvomiz. Qayerda beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng zarur masalalar

o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, oqibati halokatga olib keladi. Loqayd odamlardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na sadoqat va na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi, Vatani taqdiriga ham bamisoli begonadek qaraydi. Nabiy (s.a.v.): «Mo'min ziyrak, ehtiyotkor va oqil bo'ladi», – deb ta'kidlaganlar.

Yosh farzandlarimizning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishiga ruxsat berishda shoshilmaslik lozim. Sababi uning negizida bola xavfsizligi yotadi. Bola xavfsizligi – bolalarni hayoti, sog'ligi, ongi va ruhiga qaratilgan xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan ishlarni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bola xavfsizligi muammosi kundan kunga bahs-munozaralar markaziga aylandi. Ijtimoiy hayotda bola atrofida o'zi yolg'iz qolganda yoki yordamga muhtoj bo'lgan vaziyatda bolani o'ziga o'zi yordam ko'rsatishi to'g'risidagi bilimlarni xorijiy davlatlar singari O'zbekistonda ham maktab ta'lim tashkilotlarida amaliyotga tatbiq etish bugungi zamon talabi.

Shunday ekan, real va virtual hayotda bolani yomon odamlar bo'lishi mumkinligi xavfidan ogohlantirish va shunday vaziyatga tushgan taqdirda, o'zini himoya qilish choralari o'rgatish zarurati avvalo ota-onada, so'ng ta'lim muassasalarida shakllantirilishi lozim. Afsuski, farzandlarimizga kichik yoshdan boshlab yomon odamlar haqiqatdan ham mavjudligi hamda bolalar shunday shaxslarning qurboniga aylanayotganidan kelib chiqib, yomon niyatli «amaki va xolalar» xavfidan ogoh etish zarurati mavjudligini singdirmaymiz.

Shuningdek, bola xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillardan internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikdir. Shifokorlar virtual muhitga qaramlikni ruhiy kasalliklar qatoriga kiritgan. U ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi jiddiy kasallikdir.

Aslida internetda ko'p vaqtini o'tkazgan kishi vaqt tushunchasidan uzoqlashib boradi, yaqinlari, do'stlari bilan muloqot qilishni orqaga suradi hamda organizmning tabiiy ehtiyojlarini e'tiborsiz

qoldiradi. Vaqt o'tishi bilan sog'lom hayot tarzi o'zgarib, odamning ruhiyati va sog'lig'iga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy tarmoqqa qaram bo'lib qolgan yoshlarga virtual muloqot yolg'on erkinlikni, go'yoki hamma narsaga qodirlik his-tuyg'ularini baxsh etadi. Ayni vaqtda real hayotda hal etilmayotgan muammolar va yechilmagan masalalar yig'ilib boraveradi.

Virtual muhitga qaramlik oddiy kasallikka o'xshab o'z belgilariga ega:

Vaqt tushunchasiga ega bo'lmaslik. Yarim soatda ijtimoiy tarmoqni kezib chiqaman degan kishi aslida har xil sahifalar va kontentlar ta'sirida bir necha soat vaqt o'tganini sezmay qoladi. Cheksiz internet olamida sayr etgan yoshlar dolzarb muammolar, real hayot masalalaridan qochmoqchi bo'ladi.

Tabiiy ehtiyojlarni qondirmaslik. Nima bo'lishidan qat'i nazar, hayot tarzini yaxshilash maqsadida inson o'z tanasidagi ehtiyojlarga quloq solishi kerak. Ijtimoiy tarmoqqa sho'ng'igan kishi uzoq vaqt taom yemasligi, kam uxlashi, hatto hojatga ham bormasligi mumkin. Bunday holatlar jiddiy kasalliklarga olib keladi.

Ijtimoiy hayotdan voz kechish. Qiziqarli tadbirlar, yig'ilishlar internet kasalligiga duchor bo'lgan shaxs uchun zerikarli bo'lib tuyuladi. Buning o'rniga virtual muloqotni afzal ko'radi. Do'stlari va yaqinlari bilan jonli muloqot o'rnini virtual muloqotlarga beradi.

Fiziologik ko'rinishdagi o'zgarishlar. Virtual muhitda vaqtini ko'p o'tkazadigan shaxslarda kuchli horg'inlik, tana tuzilishidagi o'zgarishlar, jiddiy vazn yo'qotish, umurtqa pog'onasidagi qiyshayishlar kuzatiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda bola xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy omil unga yaxshi tarbiya berishdir. Tarbiya jarayoni jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va uni ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan bola shunga qarab, shakllanib boradi.

Ular taqlid qiladilar va asta-sekin refleksga aylanadi. Bu reflekslar doimiy odat bo'lib, tarbiyani qanday ekanligini ko'rsatadi. Tarbiya samaradorligi tarbiyaning qanday usullardan foydalanilganligiga bog'liq.

Azal-azaldan o'zbek xalqi bola tarbiyasida quyidagi usullardan samarali foydalanib kelgan:

So'z orqali tarbiyalash usuli. So'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalardir.

Ko'rgazmalilik usuli. Kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash uslublarini o'zida mujassam etadi.

Amaliy ibrat-namuna usuli. Tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, boshqalarni amaliy mehnatda namuna qilib ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Rag'bat usuli. Bola tarbiyasida keng qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. O'rtoqlari va ota-onalar majlisida maqtash, ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, moddiy va iqtisodiy yordam berish, mukofotlar berish, stipendiyalarini oshirish, maqtov yorliqlarini topshirish, suratlarini hurmat taxtachasiga qo'yish va yoritish, telekanallarda maxsus ko'rsatuv tashkil etish, og'zaki «Rahmat», «Barakalla» so'zlari bilan rag'batlantirish usullari qo'llaniladi.

Tarbiyalanuvchini rag'batlantirish usullari ikkiga bo'linadi:

- Siz buyurgan ishga burch va mas'uliyat bilan yondashganiga qarab rag'batlantirish;
- Siz buyurgan ishga qiziqish va uni uddalay olganligiga qarab rag'batlantirish usuliga bo'linadi.

Jazo usuli. Bolani o'zi sodir etgan xatti-harakati yoki qilmishi uchun saboq bo'lishi hamda uni qayta sodir etmasligi uchun qo'llaniladigan tarbiya usuli hisoblanadi. Jazo usuli tushuntirish,

uyaltirish, tanbeh berish, ogohlantirish va jamoadan chetlashtirish choralari qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, shuni alohida ta'kidlash kerakki, mutaxassislar fikriga ko'ra o'zbekistonlik ota-onalar boshqalarga nisbatan farzandlarining internetdagi tashrifini qattiqroq nazorat qilishar ekan. Lekin bolalarning istagi to'siqsiz internetdan foydalanishdir. Olimlarning ta'kidlashicha bolalarning internet tarmog'iga tashrifi ko'plab ijobiy holatlar bilan izohlanadi. Bu yangi informatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, gadjet va qurilmalarni o'rganish, axborot almashish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ota-onalar har doim bolalarini himoya qilish uchun kurashadilar, lekin ular o'zlari bilmagan yoki tushunmagan holatga nisbatan ko'p hollarda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunday bir holatda turli gadjetlar uchun yaratilgan «Ota-ona nazorati» ilovalari ko'mak beradi. Hozirgi kunda bunday ilovalarning turlari ko'p bo'lib, «Find my kids», «Google family link», «Kids:360» «Parental control App», «Family link» va boshqa shu kabilardir. Mazkur ilovalarni ota-onalar Play Market va App Store sahifalaridan yuklab olishi mumkin. Ota-ona nazorati ilovasini o'rnatish foydalanuvchilarga quyidagi asosiy xususiyatlari bilan bolalarning raqamli qurilmalarini kuzatish imkonini beradi:

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib borish.

Bolalar Facebook, Snapchat, WhatsApp, Skype, Viber va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga kirishlari mumkin. Bu jarayonda ota-onalar o'z farzandlarini kimlar bilan xabar almashmoqda, qanday sahifalarni kuzatmoqda, qay turdagi kontentlarni tomosha qilmoqda, ovozli qo'ng'iroqlar shu kabi faoliyatlarini kuzatishlari mumkin.

Ikkinchidan, qo'ng'iroqlar va matnli xabarlarni nazorat qilish.

Mazkur nazorat qilish imkoniyati bolalarga yuborilgan har qanday xabarlar va qo'ng'iroqlarni nazorat qiladi va ularga nisbatan bo'ladigan tahdidlar hamda kiber hujumlarni aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, ota-onalar real vaqt rejimida farzandining

mobil telefoniga kirgan holda kiruvchi va chiquvchi qo'ng'iroqlarni yozib olish va tinglash hamda ma'lumotlarni asboblari paneliga yuborish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchiidan, internetda ulashilgan va telefon galereyasida saqlangan fotosuratlar hamda videolarni nazorat qilish.

Bolalar va yoshlar o'zlarining shaxsiy smartfonlaridagi foto va videolarni ijtimoiy tarmoqlarda do'stlariga yoki tanishlariga namoyish qilishga ishtiyoqmand bo'lishadi. Bu ularda maqtanish, o'zini namoyish etish istagidan hosil bo'ladi. Ba'zan bu holatlar yaxshilik bilan yakun topmaydi. Shunday salbiy holatlar yuz bermasligi uchun ota-onalar farzandlarining smartfonlaridagi galereyani nazorat qilishlari va undagi foto hamda videolarni uzatmaslik choralari ko'rishlari lozim.

To'rtinchiidan, GPS joylashuvini kuzatish.

Ota-onalar uchun farzandlarining qayerda yurgani, qaysi manzillarga tashrif buyurganini onlayn kuzatish muhimdir. Mazkur ilovalar bu imkoniyatni taqdim etadi va Google Xaritalarda xavfsiz va xavfli joylarni virtual tarzda belgilash imkonini beradi. Shuningdek, haftalik joylashuv tarixi, giyohvandlik, o'g'irlash, suiiste'mol qilish va boshqalardan himoya qilishi qulayliklarini beradi.

Beshinchiidan, elektron pochta xabarlari.

Mazkur qulaylik yuqoridagi GPS joylashuvini kuzatish qulayligining davomidir. Ota-ona qaysi hududlar va holatlar bolalari uchun xatarli ekanligini ilovaga kiritadi va bola bunday joylarga tashrif buyurganda yoki shunday holatga tushganda avtomatik ravishda ota-ona smartfoniga xabar keladi. Shuningdek, ota-onalarga bolasi xavf ostida qolganda darhol elektron pochta xabarlarini olish imkonini beradi.

Oltinchiidan, ekran vaqtini cheklash.

Ekran vaqti voyaga yetmaganlarning kognitiv rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Shu sababdan ekran vaqtini cheklash orqali bola ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir

o'tkazishingiz mumkin. Mobil telefonlarda ekran vaqtini qisqartirish imkonini beruvchi smartfon monitoringi dasturini ota-ona nazorati funksiyasiga bog'lagan holda bir ilovani 1 soatdan 12 soatgacha bloklash mumkin. Bundan tashqari quyidagi imkoniyatlar taqdim etadi:

- qurilmadan foydalanish uchun vaqt chegarasini belgilash;
- muayyan vaqtda kiruvchi ilovalarga kirishni cheklash;
- qurilmaning internetini masofadan o'chirib qo'yish;
- qurilmani masofadan o'chirish.

Yettinchidan, ko'rib chiqish tarixini kuzatish.

Har bir smartfon qurilmasida Chrome, Safari, Firefox, Opera va boshqa shu kabi o'rnatilgan veb-brauzerlar mavjud. Internetga ulangan holda bolalar o'yin vebsaytlari, porno, jonli efir vebsaytlari va boshqa ochiq vebsaytlarga kirishadi. Ota-onalar uchun mazkur imkoniyat quyidagi qulayliklarini beradi:

- tashrif buyurilgan vebsaytlarni kuzatib borish;
- belgilangan sahifalarni ko'rish;
- tashrif buyurilgan sahifalar jadvali va ularning URL manzillari ro'yxatini ko'rish.

Sakkizinchidan, begona qo'ng'iroqlarni bloklash.

Yosh o'smirlar begonalar bilan ijtimoiy tarmoq platformalaridan foydalangan holda aloqalarni onlayn almashish ehtimoli ko'pdir. Ular his-tuyg'ularni mustahkamlash va aloqalarni almashish uchun begonalar bilan onlayn suhbatlashadilar va shuningdek, ular bilan uchrashadilar. Bunday hollarda shubhali shaxslar bilan yosh o'smirlarning suhbatlarini tinglash, uning mazmuni bilan tanishish orqali begona shaxslar bilan aloqani bloklash mumkin.

To'qqizinchidan, real vaqtda ekranni yozib olish.

Ekranni yozib olish ota-ona nazoratidagi eng muhim funksiyalardan sanaladi. Foydalanuvchilar mobil telefon ekranlarida jonli video yozib olish imkoniyatiga egadir. Ekran yozuvchisi – bu bolalar monitoringi ilovalariga bo'lgan talabni oshiradigan ota-ona

nazorati dasturidir. Foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlar, telefon qo'ng'iroqlari, VoIP qo'ng'iroqlari, umumiy media, elektron pochta xabarlari, ko'rish tarixi va boshqalarni ko'rishlari mumkin.

O'ninchidan, kameralar va mikrofonlardan foydalanish.

Bolaning telefonini old va orqa kameralarini, shuningdek, mikrofonini ota-ona nazorati ilovasi orqali boshqarish imkoniyatini taqdim etadi. Unda ovoz bilan atrofdagi jonli suhbat va kameralar orqali old hamda orqa tomondagi jarayonlarni kuzatish mumkin. Bu, albatta ota-onalar uchun eng muhim qulaylik beruvchi funksiyadir.

Umuman olganda, ota-ona nazorati ilovalari yuqoridagi shu va shunga o'xshash imkoniyatlar ota-onalarga bolalarini onlayn va oflayn rejimda nazorat qilish imkonini beradi. Hozirgi tahlikali davrda shunga o'xshash ilovalarning yaratilishi va undan foydalanish ba'zi bir muammolarni oldindan bartaraf etish imkoni va nazoratini beradi.

IV. MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAN YUKSALTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

4.1. 1–4-sinf o'quvchilariga maktabga moslashish va kitobni sevishga o'rgatishga oid tavsiyalar.

Hozirgi zamon jamiyatida insonlarga nisbatan qo'yiladigan talablar kundan kunga oshib bormoqda. Eng zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, shuning bilan birga, murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lish XXI asr insonlari uchun zaruratga aylanmoqda. Shu sababli, kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizda o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Aynan zaruriy o'quv ko'nikmalariga ega bo'lgan insonlarga o'z kelajaklarini qura oladilar, kelajak hayotini farovon va muvaffaqiyatli bo'lishiga erisha oladilar.

O'quv ko'nikmalari – bu faqatgina fanlarga oid bilimlarni o'zlashtirish yoki sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish bilan tugatiladigan jarayon emas. Bu ko'nikmalar bolaning butun hayoti davomida, tahliliy fikrlashidan tortib, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatigacha, ko'plab sohalarda asosiy rol o'ynaydi.

Har bir bola o'ziga xos qobiliyat va turli fazilat va sifatlarga ega bo'lib, ularning samarali rivojlanishi esa ko'pincha o'quv ko'nikmalarining qay darajada shakllanganligi va rivojlanganligiga bog'liqdir. Ularning ongini o'stirish orqali biz ularga qandaydir bitta sohada emas, balki hayotning ko'plab jabhalarida muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatini beramiz.

Mana shunday sharoitda, bolalarda o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati to'g'risida batafsil o'ylash va bu yo'nalishdagi tadqiqotlar, tajribalar va amaliyotlarni ko'rib chiqish katta ahamiyat kasb etadi. Shu orqali bolalarimiz nafaqat akademik

jihatdan muvaffaqiyatli, balki jamiyatga foydali va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar bo'lib voyaga yetishlari uchun asosiy qadamni qo'yamiz.

Bolalarda o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati.

Bolalarda o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim, chunki bu ko'nikmalar ularning bilim olish jarayoniga, akademik muvaffaqiyatlariga va kelajakdagi hayotlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Quyida bolaning o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishning bir necha asosiy ahamiyatli jihatlari keltirilgan:

- **Bilim olish jarayoni:** Bolalar mustaqil ravishda o'qishni va malakalarini chuqurlashtirishni o'rganadilar. O'quv ko'nikmalari yaxshi rivojlangan bolalar yangi bilimlarni tez va samarali o'zlashtira oladilar.
- **Ijodkorlik va fikrlash qobiliyatlari:** O'quv ko'nikmalarini rivojlantirish bolalarning tahliliy fikrlash, muammolarni hal qila olish va ijodkorlik qobiliyatlarini oshiradi. Bu ularga g'oyalarni tanqidiy ravishda tahlil qilish va yangi yechim topishda yordam beradi.
- **O'z-o'zini boshqarish:** O'quv ko'nikmalariga ega bolalar ko'pincha o'z-o'zini boshqarish va intizomni rivojlantiradilar. Ular o'z vaqtlarini samarasiz ishlatishga emas, balki unumli o'quv jarayoni uchun sarflaydilar.
- **Akademik muvaffaqiyat:** O'quv ko'nikmalari yaxshi shakllangan sharoitda maktabdagi o'quv faoliyatida va akademik bilimlarni namoyish qilishda, turli sinov natijalarida muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida bolalarga oliygohlarga kirishga va kerakli kasblarni egallashga yordam beradi.
- **Ijtimoiy ko'nikmalar:** O'qish faqat darsliklarni o'zlashtirish bilangina emas, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan ham bog'liq jarayondir. Ta'lim jarayoni hamkorlik asosida qurilgan bo'lsa, ya'ni o'quvchilar guruhlarda jamoa

bo‘lib ishlasa, fikr almashish va muloqot qilish jarayoni kechadi va bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari ilm-fan, san’at va madaniyat orqali keng qamrovli rivojlanishini ta’minlanadi.

- Hayotiy ko‘nikmalar: O‘qishdan olingan ma’lumotlar bolalarning kundalik hayotlarida amaliyotda foydalanishlariga imkon beradi. Bu orqali bolalar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.
- Motivatsiya va o‘ziga ishonch: O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish bolalarning o‘ziga ishonchini oshiradi va ularda motivatsiyani kuchaytiradi. Muvaffaqiyat hissi ulardan kelib chiqadigan maqsadlarga erishishda yordam beradi.

Umuman olganda, bolalarda o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish ular uchun keng doiradagi ijobiy ta’sirlarni keltirib chiqaradi va ularning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi.

Bolaning mustaqilligini va bilim olishga qiziqishini rivojlantirishda ota-onalarning roli.

Bolaning mustaqilligini va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishda siz ota-onalarning roli nihoyatda katta va muhimdir. Ota-onalar bolaning birinchi murabbiylari va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitning eng yaqin shaxslari bo‘lib, ular boladagi o‘quv ko‘nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsata oladilar. Quyida ota-onalarning bu jarayondagi asosiy rollari va vazifalari keltirilgan:

1. Rag‘batlantirish va motivatsiya berish:

Bolani mustaqil o‘rganishga va yangi bilimlarni izlashga rag‘batlantirish uchun ota-onalar har doim qo‘llab-quvvatlab turishlari kerak. Ularni qiziqarli kitoblar, topshiriqlar va o‘yinlar bilan ta’minlash orqali ilimga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish mumkin.

Bolaning har bir kichik muvaffaqiyatini nishonlash va rag‘batlantirish orqali unda o‘ziga ishonch hosil qilish va motivatsiyaga ega bo‘lishiga yordam berish lozim.

2. O‘quv muhitini yaratish:

Uyda qulay o‘quv muhitini yaratish: tinch va qulay ish o‘rni, kerakli o‘quv jihozlari va vositalar bilan ta’minlash.

Uyda kun tartibini tuzish va unga qat’iy rioya qilish orqali bolaga o‘qish, dam olish, hordiq chiqarish, uy yumushlariga ko‘maklashish va boshqa mashg‘ulotlar uchun ajratilgan vaqtni tushuntirish va unga amal qilinishiga ko‘maklashish.

3. Qiziqishni uyg‘otish:

Bola bilan hayotiy va qiziqarli mavzular haqida suhbatlashish, ularni izlanish, tadqiqotlar qilish va yangi bilimlarni kashf qilishga undash.

Ularning qiziqishlari va sevimli mashg‘ulotlarini aniqlab, ularning rivojlanishi uchun kerakli imkoniyatlarni taqdim etish.

4. Mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash:

Bolaga mas’uliyat va mustaqillikni o‘rgatish. Har qanday muammo yoki vazifani o‘zi hal qilishi uchun imkoniyat yaratish.

Bola qiyinchiliklarga duch kelganida unga yordam berish, lekin bu jarayonda o‘z qarorlarini qabul qilishga va o‘zi erishgan natijalarini ko‘rishga imkoniyat berish.

5. Ijobiy muloqot:

Ochiq va samimiy muloqot orqali bolaga o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini va qiziqishlarini ifodalash imkoniyatini berish.

Tanqid qilishdan ko‘ra, ko‘proq konstruktiv fikrlar berish va ularni o‘z xatolaridan saboq chiqarishiga imkoniyat yaratish.

6. Shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish:

Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda o‘zlari ham bilim olish va o‘rganish jarayoniga qo‘shilganligini ko‘rsatishlari kerak. Kitob o‘qish, yangi narsalarni o‘rganish va doimiy ravishda o‘sib borish ota-onalarning shaxsiy o‘rnaklari bolalarga jiddiy ta’sir qiladi.

Bolaga o‘quv ko‘nikmalari va bilim olishning hayotiy ahamiyatini o‘zlarining amaliyotlari orqali tushuntirish.

7. Farzandining rivojlanishini kuzatish va qo'llab-quvvatlash:

O'quv jarayonidagi yutuq va qiyinchiliklarni muntazam ravishda kuzatish, zarur bo'lganda yordam berish.

Maktab bilan aloqa o'rnatish va bolaning ta'lim jarayonini kuzatish, muallimlar bilan doimiy muloqot qilib turish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalarda mustaqillikni va bilim olishga qiziqishni rivojlantirish ota-onalarning uyda yaratiladigan muhit, muloqot va ehtiyotkorona qo'llab-quvvatlashi orqali amalga oshadi. Bu jarayon ota-onalarning faolligi, e'tibori, mehr-muhabbati va intilishlariga bog'liqdir. Bolaning o'z his-tuyg'ularini ochiq ifodalashi va yangi bilimlarni qabul qilish jarayoni davomida mustaqillikni qo'llab-quvvatlash esa uning muvaffaqiyatli va baxtli shaxs bo'lishiga xizmat qiladi.

Har bir ota-ona farzandining birinchi sinfga qadam qo'yishini orziqib kutadi. Bola va ota-ona ushbu damga katta tayyorgarlik ko'rishadi. Ba'zi o'quvchilar bolalar bog'chasidan, boshqalar esa qisqa tayyorlov guruhlardan, yana boshqalar esa oilaviy tarbiya muhitidan maktabning birinchi sinfga qadam qo'yadilar. Maktabda o'quv faoliyatining boshlanishi bolaning hayot yo'lidagi yangi bosqichdir. Hayotning bu bosqichi ko'pchilik bolalar uchun ham, ularning ota-onalari uchun ham qiyin kechadigan jarayondir, chunki bu jarayon ularning hayotiga katta o'zgarishlar olib keladi degani. Bola uchun ushbu maskanda hamma narsa yangi: muallimlar va tarbiyachilar, do'stlar, binolar, muhit, kun tartibi, o'quv faoliyati va boshqalar.

Har qanday inson yangi muhitga tushganida unga moslashish jarayonidan o'tgani singari, bola uchun ham unga tamomila yangi bo'lgan muhitga moslashish jarayoni bir muncha qiyinchiliklardan iborat bo'ladi. Birinchi sinf o'quvchisini maktabga moslashtirish ota-onalardan jiddiy e'tibor va yordam talab qiladigan muhim bosqich sanaladi. Chunki, bolani maktabga moslashtirish jarayoni muammosi ota-onalar uchun ham, maktab uchun ham dolzarbdir.

Maktabdagi yangi muhitni ko‘rib deyarli barcha bolalar xavotir va hayajon hissida bo‘ladilar. Shubhasiz, o‘qituvchi ham, tarbiyachi ham, ota-onalar ham birinchi sinf o‘quvchilarining maktab hayotiga imkon qadar tez va oson kirishib ketishi va moslashishiga harakat qiladilar.

Farzandingizni maktabga moslashishi yengil o‘tishiga yordam beradigan ba’zi tavsiyalarni keltiramiz:

1. Farzandingizda maktabga va o‘qituvchilarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.

- maktab haqida ijobiy fikrlarni gapiring: farzandingiz bilan maktab haqida gaplashganingizda, maktab qiziqarli va zavqli maskan ekanligi haqida gapiring.
- farzandingizdagi xavotir va tashvishlarni kamaytiring: farzandingiz bilan uning xavotir va tashvishlari haqida gaplashing va bunday holat normal ekanligini tushuntirishga harakat qiling.

2. Kun tartibini o‘rnatish.

- Kun tartibi: farzandingizni asta-sekin yangi tartib bilan tanishtiring – ertalab uyg‘onish, maktabga kech qolmaslik, tushlik, uy vazifalarini bajarish va uxlash vaqti.
- Dam olish va o‘yin vaqti: o‘qish va dam olish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlang, moslashish davrida o‘yinining ahamiyati juda yuqori.

3. Ruhiy tayyorgarlik.

- qo‘llab-quvvatlash: farzandingizda o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘oting («Sen buni albatta qila olasan», «Men senga ishonaman», ...) va uning har bir yutug‘ini rag‘batlantiring («Sen buni uddalashingni bilgan edim», «Juda to‘g‘ri bajarding»).
- o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari: farzandingizni o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga o‘rgating. Agarda maktabda biror narsani uddalay olmayotgan bo‘lsa yoki o‘zini yomon his qilsa, bunday hollarda o‘qituvchilardan yordam so‘rashga tortinmaslik kerakligini tushuntiring.

4. Ijtimoiy moslashuv.

- muloqot qobiliyatlari: farzandingizga salom berishni, o'zini tanishtirishni va suhbat qurishni o'rgating.
- farzandingiz bilan «maktab» o'yinini o'ynang: uyda, maktabda bo'lishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarni taqlid qiling. Bunda, u bilan «o'qituvchi va o'quvchi» rollarini bajarishingiz mumkin. Bu bilan siz farzandingizga uni maktabda nimalar kutayotganini yaxshiroq tushunishga yordam berishingiz mumkin bo'ladi.

5. Jismoniy salomatlik.

- to'g'ri ovqatlanish: farzandingizni vitaminlar va minerallarga boy bo'lgan ovqatlanishini ta'minlang.
- yetarli va o'z vaqtida uyqu: birinchi sinf o'quvchilari kuniga taxminan 10 soat uxlashlari kerak.

7. O'quv faoliyatiga ko'maklashish.

- uy vazifalarini birgalikda bajarish: farzandingizga uy vazifasini bajarishda yordam bering, lekin uning o'rniga siz bajarmang.
- kitob o'qish: farzandingiz bilan muntazam ravishda birga kitob o'qing, bu bilan siz uning so'z boyligi va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam bergan bo'lasiz.

8. Suhbatlar.

- har kunlik suhbatlar: farzandingizdan uning kuni qanday o'tganini, unga bugun nimalar yoqqani va nimalar yoqmagani haqida so'rang.
- ochiqlikni rag'batlantirish: farzandingizga u siz bilan hamma narsa haqida gaplasha olishini bildiring (*Eslatma!* Farzandingiz siz bilan aksar mavzularda suhbatlashishga qo'rqmasligi kerak, aks holda uni qiynagan masalalarda u sizdan emas, boshqalardan qo'llab-quvvatlanishni izlay boshlaydi).

9. Maktab hayotida faol ishtirok etish.

- o'qituvchilar bilan uchrashuvlar: ota-onalar majlisi va maktabdagi boshqa tadbirlarda faol ishtirok eting.

- nazorat va qo‘llab-quvvatlash: o‘qishidagi muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklarni kuzatib boring va bolangizga ularni yengishga yordam bering.

10. Bola mustaqilligini rivojlantirish.

- shaxsiy buyumlar va mas’uliyat: farzandingizga o‘quv anjomlarni yaxshi tutishga, ularni ehtiyot qilishga va ozoda tutishga o‘rgating.
- o‘z-o‘zini boshqarish: uni asta-sekin maktabga mustaqil ravishda tayyorlanishiga o‘rgating.
- farzandingizni maktabda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni mustaqil ravishda hal qilishga o‘rgating. (Masalan, kim bilandir tortishib qoldi, do‘stlasholmayapti yoki qaysidir topshiriqni o‘z vaqtida bajara olmadi va h.k. Farzandingizga bunday hollarda sinfdoshi bilan yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki bahsni tahlil qilishga, boshqalar bilan do‘stlashish muhim ekanligini va do‘stlashish yo‘llarini, har bir topshiriqni kechiktirmasdan o‘z vaqtida bajarishlik muhim ekanligini o‘rgating).

11. Farzandingizning o‘qishdagi muvaffaqiyatsizliklaridan asabiylashmang va xafa bo‘lmang.

12. Farzandingiz o‘zlashtirmayotganini yoki o‘quv materiallaridan orqada qolayotganini kuzatayotgan bo‘lsangiz, shoshilinch xulosalar chiqarmang, o‘zingiz o‘qigan o‘quvchilik davringiz bilan solishtirmang. Chunki, hozirgi dasturlar, o‘qitish usullari, darsliklar, bilimlarni baholash va boshqalar siz o‘qigan davrdagilar bilan tubdan farq qiladi. (Eslatma! Farzandingiz biror narsani tushuna olmagani yoki o‘zlashtira olmagani uchun hech qachon uni og‘ir so‘zlar bilan koyimang). Hatto sizga uning maktabdagi muvaffaqiyati yetarli emasdek tuyulsa ham farzandingizning harakatlarini ijobiy baholashga intiling, uning eng kichik yutuqlaridan ham xursand ekanligingizni namoyish qiling.

Hurmatli ota-onalar, esda tutingki, bolangizning hissiy, irodaviy jihatdan rivojlanishi unda kechadigan aqliy faoliyat jarayonlari-

ning to'g'ri rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli, yuqoridagi tavsiyalar asosida siz bolangizga nisbatan iliq munosabatda bo'lishingiz, u o'zini xotirjam his qilishligini doim yodda tutishingiz kerak. Agar bola hissiy (emotsional) jihatdan to'g'ri rivojlansa (masalan, bola injiq bo'lmasa, bildirilgan tanqidni to'g'ri qabul qilsa, ziddiyatlarda o'zini vazmin tutsa va hokazo), uning aqliy rivojlanishi ham yuqori darajada bo'ladi.

Unutmangki, farzandingizni maktab hayotiga osonroq moslashishining kaliti sizning mehringiz, qo'llab-quvvatlashingiz va sabr-toqatingizda. Bola sizning unga yaqinligingizni, har qanday vaziyatda unga yordam berishga va qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligingizni his qilishi kerak.

Moslashish jarayonidagi muammolar

Aqliy faoliyatning rivojlanishida maktabga moslashish davrini to'g'ri tashkil etilishi muhim hisoblanadi.

Agar boshlang'ich sinflardayoq fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchrasa, undagi o'qishga bo'lgan qiziqish so'na boshlaydi, atrofdagi insonlar bilan munosabatlarda muammolar yuzaga kela boshlaydi. Natijada, bolada depressiv holat yuzaga keladi, o'ziga bo'lgan ishonch pasayadi. Mazkur muammolarning oldini olishda quyidagi tavsiyalarga e'tibor qarating.

Bolaning maktab hayotiga osonroq moslashib ketishida, asosan, uchta jihatga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bular, jismonan moslashish, psixologik (ruhiy) moslashish va ijtimoiy moslashish masalalaridir.

1. Jismonan moslashish

Maktabdagi hayotning ilk kunlaridayoq bolada jismonan toliqish, charchoq, zo'riqish kuzatiladi. Yangi kun tartibiga jismonan moslashish jarayoni 2–3 haftadan 3 oygacha davom etishi mumkin. Bola hayotiga kirib kelgan yangi muhit, yangi rejim uning organizmida vujudga kelgan zo'riqish sababli sentyabr oyida ba'zi bolalar betob bo'lib qolishlari ham kuzatiladi.

Aynan shu oyda ota-onalar quyidagi tavsiyalarga rioya qilishlari orqali bolada nafaqat jismonan va ruhan, balki hissiy muvozanatni buzilmasligiga erishish mumkin bo'ladi:

- *kun tartibini to'g'ri tuzish va unga qat'iy rioya qilish.*

Kun tartibini to'g'ri tuzishda bolaning o'quv faoliyati, hordiq chiqarishi, uy ishlariga ko'maklashishi, jismoniy faolligi, uyqu vaqtlari to'g'ri belgilanishiga erishish kerak bo'ladi. Bunda muhim jihatlardan biri o'z vaqtida yetarli uyqu hisoblanadi va u boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun 10–10,5 soatdan kam bo'lmasligi kerak. Uy vazifalarini tayyorlashga 1-sinfda 1 soat, 2–3-sinf-larda 1–1,5 soat, 4-sinfda 2 soat ajratiladi.

Eslatma! Kun tartibini to'g'ri tuzish bilan birga unga rioya etilishini kuzatish ham muhim hisoblanadi. Kun tartibini farzandingiz bilan birga tuzishga harakat qiling, uning fikrlarini inobatga oling. Kun tartibidagi muhim bo'limlarni bajarilishini esa turli usulda belgilab, qayd qilib borish mumkin. Masalan, jadvaldagi har bir bajariladigan ish ro'parasiga $\sqrt{}$ shaklini qo'yish orqali.

- *Uy vazifalarini bajarishda vaqti-vaqti bilan tanaffus qilish kerak bo'ladi.* Chunki bolalarda biror-bir narsaga diqqati ko'pi bilan 15–20 daqiqa davom etadi. Shu sababli, vaqti-vaqti bilan tanaffus qilib turish lozim bo'ladi. Tanaffus vaqtida bola bilan turli jismoniy mashqlar bajarish, harakatli o'yinlar o'ynash mumkin.

2. Psixologik moslashish

Ota-onalar bolaning o'quv jarayoniga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatini shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolaning maktab hayotiga oson moslasha olishi uning psixologik xususiyatlariga, ruhiy holatiga bog'liqdir. Ota-onalar eng avvalo, bolaning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini to'g'ri shakllanganligiga alohida e'tiborli bo'lishlari kerak. Motivatsiya deganda, bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan intilishining yuqoriligi va bilim-ga qiziquvchanligi tushuniladi. Uning ertalab maktabga qanday kayfiyat va xohish bilan borishi undagi motivatsiyaning qanday

shakllanganligiga bogʻliq boʻladi. Motivatsiya yuqori shakllangan boʻlsa, bola zavq bilan maktabga intiladi, maktabdagi vaqti samarali va quvonch bilan oʻtadi.

Eslatma! Farzandingizning bilim olishdagi harakatlari va intilishlariga eʼtiborli boʻlishga va doimiy qoʻllab-quvvatlashga harakat qiling. Oila aʼzolari tomonidan bunday eʼtibor va qoʻllovni his qilganda farzandingizning ruhiy holati ijobiy boʻladi, oldidagi yangi toʻsiqlarni zabt etishda oʻziga ishonch paydo boʻladi, muammolardan qoʻrqmaslik hissi shakllanadi.

Maktabdagi qiyinchiliklarni yengib oʻtishida unga doim koʻmaklashing («Sen buni albatta uddalaysan», «Men senga ishonaman»), xato qilishdan va qiyinchiliklardan qoʻrqmaslikni oʻrgatib. Maktabga borishni boshlagan davridan bolangizning xulqida turli oʻzgarishlar boʻlishi mumkin. Uning barcha oʻzgarishlariga eʼtiborli boʻling, uning xatti-harakatlarini kuzatib boring. Muammoli holat sezsangiz, zudlik bilan uning oʻqituvchisi bilan maslahatlashing.

Baʼzan ota-onalar turli sabablarga koʻra maktab va oʻqituvchilar haqida farzandi oldida salbiy fikrlar bildiradilar. Bu judayam katta xatodir. Ushbu xatoni qilmang! Bolangizga maktabi va oʻqituvchilari haqida doim ijobiy fikrlarni bildiring.

Uning har bir erishgan yutugʻini taʼkidlang, ragʻbatlantiring («Sen oʻz kuching bilan uddalading», «Bu sening mehnating natijasi»). Bu esa bolaning aqliy qobiliyatini oʻsishiga sabab boʻladi.

3. Ijtimoiy moslashish

Bolaning ijtimoiy moslashishi deganda uning oʻquvchi sifatida unga yuklatilgan vazifalarni bajarishi, oʻqituvchilar va sinfdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, ular bilan muloqot qilishi, jamoada faoliyat olib borishi tushuniladi. Uning maktab hayotiga ijtimoiy moslasha olishida quyidagi sifatlar shakllanishi lozim.

- oʻquvchi sifatidagi vazifalarni bajara olishi: darsda chalgʻimasdan oʻqituvchini tinglashi, berilgan topshiriq va vaziri

falarni o'z vaqtida bajarishi, darsda faol bo'lishi, savol-javoblarda qatnashishi, o'z xatti-harakatlariga baho bera olishi;

- o'qituvchilar va sinfdoshlari bilan muloqot qilishi: tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olishi, o'qituvchiga murojaat qilishda tortinchoqlik qilmasdan o'zini dadil tutishi, boshqalar fikrini tinglashi;
- jamoada faoliyat olib borishda tengdoshlari bilan o'zaro samimiy munosabatlar o'rnatish, do'stlashishi, boshqalarga yordam berishga intilishi, jamoa ishlarida faol bo'lishi.

Eslatma! Farzandingizda ushbu sifatlar shakllanayotganini kuzatib boring. Uning maktabdagi turli xil ziddiyatli vaziyatlariga befarq bo'lmang, uni diqqat bilan tinglang va ziddiyatlarni hal qilishiga ko'maklashing. Sinfdoshlari bilan samimiy munosabat o'rnatishiga va do'stlashishiga yordam bering, ularni oilangizga taklif qilib turing.

O'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar

Bolalarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularning maktab davridagi bilim olish jarayoni samarali va o'rganish faoliyatidan zavqlanishlari uchun juda muhimdir. Quyida biz bolalarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish bo'yicha ba'zi tavsiyalarni keltiramiz:

1. Qiziqishni uyg'otish:

Bolaning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini aniqlang va o'sha sohalar bilan bog'liq o'quv materiallarini taqdim eting. Masalan, kitoblar, ommabop bukletlar, uskunalar, jihozlar, buyumlar, videofilmlar bo'lishi mumkin.

Ishqibozlikni va qiziqishni uyg'otadigan mavzularni tanlang. Masalan, hayvonot dunyosi, rasm chizish, qurilish va boshqalar haqida hikoyalar, kitoblar va darsliklar orqali bolaga qiziqarli ma'lumotlar bering.

2. Rag‘batlantirish va maqtov:

Bolaning har qanday muvaffaqiyatini, hatto kichik yutuqlarini ham maqtovlar bilan rag‘batlantirish. Masalan, «Men sendan mamnunman», «Ajoyib yutuq».

Har qanday muvaffaqiyatsizlikni tanqid qilishdan ko‘ra, uning yutug‘iga e‘tibor qarating va unga qadam-baqadam o‘tib borish uchun maslahatlar bering. Masalan, «bu safar uddalay olmagan bo‘lsang, bu sen uchun keyingi yutuqlaringga zamin bo‘ladi».

3. O‘rganishni o‘yinga aylantirish:

O‘quv jarayonini o‘yin bilan birlashtirish orqali bolada qiziqish uyg‘otish mumkin. Masalan, matematika masalalarini o‘yinlar yordamida yechish, kitobdagi hikoyalarni rolli o‘yinlar orqali jonlantirish.

Boshqotirma, krossvordlar, kvestlar va boshqa o‘yinlar yordamida bolaga o‘rganishni qiziqarli va samarali qilish mumkin.

4. Mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash:

Bolaga o‘z-o‘zini boshqarishni va mustaqil ravishda bilim olishni o‘rgatish kerak. Shu bilan birga unga o‘z vaqtini va o‘quv jarayonini rejalashtirishga imkoniyat bering.

Bola o‘quv jarayoni bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelganida unga yordam bering, lekin u yuzaga kelgan muammoni o‘zi hal qilishi uchun mustaqil qarorlar qabul qilishiga imkoniyat yaratib bering. Masalan, qaysidir fandan berilgan topshiriqni uning o‘rniga aslo bajarmang!

5. Bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash:

O‘rganilgan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish. Misol uchun, do‘konda xarid qilayotganingizda matematikani qo‘llash, retseptlar orqali o‘qish va ilmiy tajribalarni namoyish qilish mumkin. Hozirda youtube.com kanalida uy sharoitida xavfsiz bajarish mumkin bo‘lgan fizika, kimyo, biologiya fanlariga oid qiziqarli va o‘ziga tortuvchi amaliy tajribalar berilgan. Ushbu tajribalarni oila a‘zolaringiz bilan bajarish orqali farzandingizga bilim olish zavqli jarayon ekanligini ko‘rsatgan bo‘lasiz.

6. Qulay o'quv muhitini taqdim qilish:

Uyda tinch va qulay o'quv muhitini yaratish. O'quv materiallarining osongina yetishishiga e'tibor qarating.

O'qish uchun maxsus joy ajratib qo'yish, kerakli vositalar, masalan, kitoblar, qalamlar, daftarlar kabilarni ta'minlash.

7. Ijobiy o'rnak ko'rsatish:

Ota-onalar o'zlari ham doimiy ravishda bilim olishga intilishlari kerak. Bolalar ota-onalarining o'qish va o'rganishga bo'lgan munosabatidan ilhom oladi.

Kitob o'qish va yangi bilimlarni o'rganganingizda bolaga hikoyalar qilib aytish.

Bolalarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish sabr, e'tibor va samarali metodologiyani talab etadi. Bu jarayonda bolalar o'zlarini hurmatlangan va qo'llab-quvvatlangan his qilishlari, o'rganishni qiziqarli va zavqli deb bilishlari muhimdir.

4.2. 5–8-sinf o'quvchilariga yaxshi xulqli bo'lish, atrofida gilar bilan muloqot qilishni o'rganish va bilim olishga kuchli ishtiyoqni shakllantirishga oid tavsiyalar.

Xulq (arabcha fe'l-atvor, tabiat; kayfiyat) – kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmuyi; fe'l-xarakter; insonning ma'naviy qiyofasi va faoliyatiga xos bo'lgan axloqiy tushuncha. Xulq – ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, xulq ezgulik va oliyanoblik yoki razillik va badbinlikning timsoli sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadi. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishidan yomon bo'lib dunyoga kelmaydi. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, inson xulqi, avvalo, tarbiyaga bog'liq. Ma'rifatparvar vatandoshimiz Abdulla Avloniy «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» deb bejiz ta'kidlamagan.

Xulq shaxs hayot tarzining o'ziga xosligini, uning faoliyatida axloqiy qadriyatlar tamoyillari nechog'li o'zlashtirilgani, odob me'yorlari qay tarzda amaliy ahamiyat kasb etganini va aksincha, odob-axloqqa zid bo'lgan xislatlar mavjudligini ko'rsatib turadi. Boshqacha aytganda, xulq shaxs axloqiy faoliyatining o'lchami, ko'rsatkichidir. Shaxsning go'zal axloqiy fazilatlar bilan yo'g'rilgan faoliyat tarzi yaxshi xulq namunasi bo'lib xizmat qilsa, tabiati va faoliyatida axloqiy qadriyatlarga zid amallarning namoyon bo'lishi yomon xulqqa misol bo'la oladi. Inson xulqi uning ma'naviy-axloqiy dunyosining o'ziga xos ko'zgusidir.

Shaxs ma'naviy-ruhiy kechinmalari ayni vaqtda uning xulqi orqali amaliy ahamiyat kasb etib, o'ziga xos bo'lgan faoliyat me'yorlarini shakllantiradi. Xulq – kishining fe'li, xarakteri bilan bog'liq ma'naviy hodisa, inson tabiatining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakati xulqdan tashqari odob va axloqni ham o'z ichiga oladi. Odob kundalik turmush masalalarida voqe bo'lsa, axloq shaxsning jamiyatga, davlatga, insoniyatga bo'lgan munosabatlarida o'z aksini topadi. Xulq odobga nisbatan keng, axloqqa nisbatan tor qamrovlidir. Xulq oila, mehnat jamoasi, mahalla-ko'y doirasida yaqqol ko'zga tashlanadi hamda yaxshilik va yomonlik, jo'mardlik, mehmondo'stlik kabi ma'naviy-axloqiy tamoyillarni o'zida namoyon etadi. Xushxulq inson o'zgalarga muloyimlik, nazokat, shirinsuxanlik, mehribonlik singari ma'naviy qadriyatlarga tayanib munosabat qilsa, badxulq odam, qo'pol, haqoratgo'y, bemehr, ma'naviyatsiz kimsa hisoblanadi. Xushxulqlilikni xulqning go'zalligi tarzida estetika fani ham o'rganadi. Hadislarda aytilganidek, «Bandaning savob tarozusida yaxshi xulqdan og'irroq ish yo'qdir. Uning darajasi, hatto namoz va ro'zaning darajasi bilan barobardir» yoki «Hech bir ota o'z farzandiga xulq odobdan buyukroq meros berolmaydi».

Inson tabiatida ajib bir xislat bor. Ya'ni, barchamiz bolaligimizdan hammadan zo'r, hammadan aqlli, hammadan chiroyli, ham-

madan ilgari bo'lishni istaymiz. Va bu istaklar vaqt o'tgani sayin ko'payib boraveradi. Mana shu ichki raqobat, oldinga intilish bor ekan jamiyatda rivojlanish, yuksalish bo'ladi. Shundan bo'lsa kerak ta'lim tizimida «Eng faol», «Eng ilg'or» va shunga o'xshash bellashuvlar odatga aylangan. O'ylashimcha, hammadan oldinda bo'lishga harakat samimiy, shaffof bo'lishi kerak. Ana shunda boshqalarning qalbiga ozor berib qo'ymaymiz.

Maktab davrimizda «eng yaxshi o'quvchi», «eng namunali o'quvchi» bo'lishga intilganmiz. Bugungi yoshlar ham ana shunday tirishqoqlik bilan o'qib, izlanmoqda, oldinga harakat qilmoqda. O'z navbatida, Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab internati jamoasi hamda mutasaddi tashkilotlar ularning bilimini sinovdan o'tkazish va yanada mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ham yo'lga qo'ygan. Hattoki, karantin davrida ham ushbu an'ana davom ettirilib, uyda tahsil olayotgan o'g'il-qizlarni ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida fan olimpiadalari, bellashuvlar masofadan turib o'tkazilmoqda.

Xususan, Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab internati o'quvchilariga masofadan ta'lim-tarbiya berishni amalga oshirish bilan bog'liq topshirig'i asosida «Eng faol o'quvchi», «Eng faol sinf» nominatsiyalarida tanlov joriy qilindi. Bu orqali har bir o'quvchi va sinflar olib borilayotgan televizion darslarga qatnashishi, ularning faolligi, o'rganayotgan darsliklar va o'zlashtirishlari sinovdan o'tkaziladi. Ta'limning yangi tizimini o'zlashtirish, videodarslarda ishtirok etish, berilayotgan vazifalarni sifatli bajarish ham tanlov g'olibini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Shuningdek, o'quvchining mustaqil ravishda o'z ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish masalasi ham qamrab olingan bo'lib, bu orqali bolada o'ziga bo'lgan ishonch, fikrlash, mulohaza yuritish, o'z xatolarini to'g'rilash ko'nikmasi shakllanadi. O'tilayotgan mavzular bo'yicha berilayotgan test savollari esa mustaqil ishlashning

yana bir ifodasidir. Mana shular bilan bir qatorda, «Tengdosh – tengdoshga» loyihasi ham keng qoʻllaniladi. Tabiiyki, unda faol ishtirok etgan oʻquvchi va sinflar reytingi telegram kanali orqali aniqlanadi. Erishilayotgan ijobiy natijalar esa ilgʻor tajriba sifatida ommalashtiriladi.

Aytish mumkinki, farzandlarimiz masofadan tahsil olayotgan boʻlsa-da, sogʻlom raqobat asosida bilimini oshirib borishadi. Ixtisoslik fanlari boʻyicha ham alohida dastur asosida chuqurlashtirilgan bilimga ega boʻladi. Muhimi, oʻgʻil-qizlarni darsga qiziq-tirish, faollarni ragʻbatlantirish orqali barchaga taʼsir koʻrsatish, ularni ruhlantirish kabi masalalarda ham yaxshi natijaga erishish maqsad qilingan.

Shuni unutmash kerakki, har bir boshlangan ish yaxshi natija bilan yakun topishi birgina insonga bogʻliq emas. Oʻqituvchilar bolani qiziq-tirsa, yaxshi jalb qila olsa, oʻquvchilar darsda faol ishtirok etadi. Buning uchun ota-onalar ham bolani qarovsiz qoldirmasdan, darslarda qatnashishi uchun sharoit yaratib berishi, uning oʻqishini nazorat qilib borishi lozim. Ana shunda oʻquvchida masʼuliyat boʻladi. Uni birgina sinfdagi oʻqituvchi va sinfdoshlari emas, balki yuzlab koʻzlar kuzatib turganini his etadi. Tabiiyki, videodarslarda faol ishtirok etib, test savollari hamda turli loyihalarda oldingilar safida boʻlishga intiladi.

Yana bir eʼtiborli jihati shundaki, mazkur tanlov bolaning boʻsh vaqtini mazmunli hamda toʻgʻri tashkil etish, sinfdoshlari bilan doʻstona munosabatda boʻlish, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, shuningdek, tarbiyaning boshqa estetik jihatlarini ham oʻzida qamrab olgan. Farzandlarimizning ham jisman, ham maʼnan sogʻlom boʻlishi uchun yoʻnaltirilgan tanlovda badantarbiya, jismoniy mashqlar, oʻqishdan tashqari iqtidorni namoyish etish masalasi ham alohida oʻrin olgan. Aytaylik, kimdir uyda mustaqil sport bilan shugʻullanadi, kimdir esa mohir raqqos yoki moʻyqalam sohibi, yana boshqa oʻquvchi esa ilmiy ish bilan band boʻlishi mumkin.

Ana shunday tirishqoq hamda iqtidorli bolalar tahsinga, ragʻbatga munosib. Ularning amaliy ishlari esa ommalashtirilishi mumkin. Tanlov gʻoliblarini aniqlashda ushbu jihatlar ham eʻtiborga olinadi.

Umuman olganda, har oyda bir nafar eng faol oʻquvchi va bitta eng faol sinf tanlab olinadi. Ularning nomi eʻtirof etiladi. Faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadilar. Asosiysi, har bir oʻquvchi gʻoliblik uchun intilish orqali izlanadi, doimiy harakatda, oʻqishda va izlanishda boʻladi.

Oʻylaymizki, ota-onasi hamda ustozlarining ishonchini oqlash, olayotgan bilimini sinovdan oʻtkazish va yanada mustahkamlash, ertaga oʻz kasbining ustasi boʻlib yetishishni istagan har bir bola tanlovda faol ishtirok etadi. Yuksaklikka intilgan, yaxshi oʻqib, goʻzal xulq egasi boʻlishni istagan har bir bola esa gʻolib sanaladi. Ana shunday asl farzandlarning koʻpayishi taraqqiyot, yuksalish demakdir.

Oʻquvchilar bilan muomala qilish pedagogning oʻz tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa pedagog soʻzlashishni bilishi lozim. U darsni samarali olib borishni, soʻzlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman, butun taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquvchilar bilan muloqotni yoʻlga qoʻya olishi lozim.

Muloqot – yunoncha soʻz, soʻzlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv, ogʻzaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning soʻzlashuvidir. Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqot boʻlishi uchun oʻqituvchi yetarli darajada qobiliyatga ega boʻlishi kerak, hamda oʻz-oʻziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak: Nimaga oʻrgatish? Kimni oʻrgatish? Qanday oʻrgatish? Nimaga oʻrgatish: a) ilm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, oʻquv predmetini toʻliq oʻzlashtirish; b) malaka, koʻnikma va qobiliyatni shakllantirish; d) oʻquv predmetlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni amalga oshirish; e) oʻquv mazmunini tushunarli tizim asosida koʻrish. Kimni

o'rgatish: a) o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash; b) o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash; d) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarning dalillari, fikrlarini hisobga olish; e) o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib, o'z pedagogik mehnatini tashkil etish; f) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish. Qanday o'rgatish: a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuyini ishlatish. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari – bu talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri. Talab – tajribada juda keng tarqalgan usul bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lish yo'li bilan yoki bu xatti-harakatlarning rag'batlantirilishi yoki to'xtatilishini ta'minlaydi.

4.3. 9–11-sinf o'quvchilariga kasb tanlash, jamiyatga moslashish, katta hayot maktabiga qadam qo'yishda farzandlarga qanday yo'l-yo'riq berish bo'yicha tavsiyalar.

Jahonda aholi soni shiddat bilan o'sib bormoqda. Aholi sonining ko'payishi natijasida nafaqat ishga bo'lgan, balki sifatli kadrlarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Bu esa ta'lim va kasb-hunarga tayyorlov sohasiga alohida e'tibor berish zaruratini vujudga keltirmoqda. Shaxsning kasbiy shakllanishi va biron-bir soha mutaxassisi sifatida kamolga yetishini ta'limdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologiyaga oid adabiyotlar va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning kasbiy shakllanishi uning hayoti davomida kechadigan murakkab jarayon hisoblanadi hamda bu uning yoshiga va shaxs sifatida rivojlanishiga mos holda yuz beradi. Kishining kasbiy muvaffaqiyati va mataxassis sifatida mahorat darajasining oshish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan uzviy

bog‘liq sanaladi. Inson hayotida kasbni to‘g‘ri tanlay olish muhim muammolardan biridir. Kasblarning tanlov doirasi qanchalik keng bo‘lsa, psixologik jihatdan shunchalik murakkablashib boradi. Har bir shaxsning subyektiv moyilliklari va u yoki bu faoliyatga qobiliyat-liligi, yo‘nalganligi bir butunlikni tashkil etadi. Moyillik va qiziqish o‘yin, o‘quv va mehnat faoliyatining barcha jarayonlarida shakl-lanadi hamda o‘zgarib boradi. Insonning kasb tanlash arafasida o‘sha sohaga qanchalik mos ekanligi faqatgina ushbu faoliyat jarayonida aniqlanadi.

Shaxsda kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezon-lardan biri sifatida kasbiy o‘zlikni anglashni ham bir nechta davrlar-ga bo‘lish mumkin:

1. Bolada kasblar dunyosi haqida dastlabki ko‘rgazmali tasavvur-larning vujudga kelish davri. Ushbu davr 2,5–3 yoshdan boshla-nib, 16–19 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Rivojlanish mobaynida bolaning ongida kasblar dunyosi haqidagi turli-tuman tasavvurlar vujudga kela boshlaydi. Maktab boshlang‘ich ta’limda esa yetakchi o‘quv faoliyatida o‘quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlar olami yanada kengayib boradi.

2. Bolada o‘zini kasbiy bilish davri. Turli kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni o‘zlashtirib olgach, o‘quvchi ularni u yoki bu shaklda qo‘llay olishi talab etiladi. Lekin ba’zi o‘quvchilar o‘zining sevimli kasbi haqida yetarli bilim, tayyorgarlik va ko‘nikmaga ega bo‘lmaganlari sababli o‘zlarini kasbiy sohada namoyon eta olmaslik muammolariga duch kelishi mumkin. Shuningdek, bu davrda ular yangi yetakchi faoliyat – tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o‘zini bilishga bo‘lgan ehtiyoji yanada kuchayib boradi.

3. O‘z-o‘zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqich bilan birga-likda kasbiy o‘zlikni anglash jarayoni ham yakunlanadi. Bu davr mak-tabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. Bu davrning eng muhim jihatlari: o‘quvchida kasbni tanlash, uning aniq yo‘nalishlari, barqaror qiziqishlar va ehtiyojlar, kasbning talablariga mos bo‘lgan

shaxsiy xususiyatlarining o'quvchida shakllanish hodisalari kuza-tiladi.

Shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy muhit va hodisalar hamda yetakchi faoliyat turi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb tanlash bola tug'ilganidan to kasbda o'z faoliyatini boshlagunga qadar davom etadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun mehnat ta'limi va tarbiyasi oila bilan maktab hamkorligida amalga oshiriladigan kasb tanlashga psixologik tayyorlash hamda mehnat faoliyatiga ruhan tayyorgarlikka ko'maklashadigan yo'nalish sifatida uzviy davom etadi.

BOLALARNI INTERNETGA QARAMLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA QUYIDAGI TESTNI TAKLIF ETAMIZ¹

Shaxsning internet va kompyuter kasalligiga muhtalo bo‘lganini qanday bilsa bo‘ladi? Quyidagi test savollari orqali buni aniqlash mumkin. Jami 20 ta savoldan iborat ushbu test orqali internet va kompyuter kasalligining darajasini bilish mumkin. Savollarga javob berayotganda quyidagi me‘yor bo‘yicha ball qo‘yish kerak:

- | | |
|-----------------------|-----------|
| – menga tegishli emas | – 0 ball; |
| – kamdan kam | – 1 ball; |
| – vaqti-vaqti bilan | – 2 ball; |
| – ba‘zida | – 3 ball; |
| – tez-tez | – 4 ball; |
| – har doim | – 5 ball. |

SAVOLLAR:

1. Rejadan ortiq onlayn aloqada qancha o‘tirasiz?
2. Internetda ko‘proq qolay, deb uy vazifalariga e‘tiborsiz qaraysizmi?
3. Internetga oila a‘zolaringizga nisbatan ko‘proq vaqt ajratasizmi?
4. Internetda yangi do‘stlar bilan muloqot qilasizmi?
5. «Internet yoki kompyuterda ko‘p o‘tirasiz», degan tanbeh eshitasizmi?
6. Ko‘p onlayn aloqaning o‘qishingizga salbiy ta‘siri bormi?
7. Muhim ish bilan shug‘ullanishdan oldin pochtani tekshirib olasizmi?
8. Internetda ko‘p o‘tirishning o‘qishingiz samaradorligiga ta‘siri bormi?

¹ Mazkur test Muhammad Amin Yahyoning «Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o‘quv qo‘llanma» kitobidan olindi.

9. «Internetda nima ish bilan band bo‘lasan», degan savolga javob berishda himoyalaniş yoki yashirish hollari bo‘lib turadimi?

10. Hayot tashvishlarini o‘ylamaslik uchun internet haqida xayol surasizmi?

11. Onlayn muloqotdan zavqlanish tuyg‘usini his etasizmi?

12. «Internetsiz hayot zerikarli va ma’nosiz bo‘ladi» degan fikr ko‘nglingizdan o‘tadimi?

13. Birov sizni internetdan chalg‘itgan paytda g‘azablanish holatlari uchraydimi?

14. Internet olamida sayr qilish maqsadida, kechasi uyqudan voz kechish holatlari uchraydimi?

15. Offlayn bo‘lgan paytingizda internet haqida va unga tez ulanish haqida fikr yuritasizmi?

16. Onlayn muloqotda o‘tirgan paytingizda «yana ozgina o‘tiray», deb o‘zingizga aytib turasizmi?

17. Sizda internetda o‘tirishni kamaytirish uchun muvaffaqiyatsiz (o‘tgan) urinishlar bo‘lganmi?

18. Virtual muloqotni hayotiy muloqotdan afzal ko‘rgan paytingiz bo‘lganmi?

19. Do‘stlaringizdan va yaqinlaringizdan internetda qancha vaqt o‘tirganingizni yashirish holatlari bo‘lganmi?

20. Internetda o‘tirmagan paytingizda o‘zingizda g‘azablanish, tushkunlik holatlari, internetga ulangan paytingizda esa mazkur holatlar yo‘qolishini kuzatganmisiz?

TEST NATIJALARI

Savollarga javob berganingizdan so‘ng ballarni qo‘shib, internetga qay darajada bog‘langaningizni aniqlab olishingiz mumkin.

Birinchi variant: 20 balldan 49 ballgacha.

Xavotirga o‘rin yo‘q. Siz, hozircha, eng oddiy internetdan foydalanuvchisiz. Ba‘zan odatdan tashqari internetda ko‘p o‘tirsangiz ham, o‘zingizni nazorat qila olasiz. Sizda internet va kompyuter kasalligi yo‘q.

Ikkinchi variant: 50 balldan 79 ballgacha.

Internetda ko'p vaqt o'tkazganingiz uchun turli muammolarga duch kelmoqdasiz. Bu bosqichda bunday muammolar vaqti bilan yoki tez-tez paydo bo'lishi mumkin. Kompyuterga qaramligingiz kundan kunga kuchayib bormoqda. Ushbu holat hayot tarzingizga qay darajada ta'sir o'tkazayotganiga, albatta, ahamiyat bering va uni ijobiy tomonga o'zgartirishga harakat qiling. Hamma narsa o'z qo'lingizda. Ushbu bosqichda internetga qaramlikni kamaytirish imkoni bor.

Uchinchi variant: 80 balldan 100 ballgacha.

Tan olasizmi-yo'qmi, lekin internetda haddan ziyod ko'p vaqt o'tkazganingiz uchun talaygina muammolar yig'ilib qolibdi. Virtual hayot tarzingiz real hayotingizga qancha salbiy ta'sir o'tkazayotganini anglab yetish payti keldi. Mavjud muammolarni hal etishga kirishmasangiz, hayotingiz tanazzulga yuz tutadi. Balki sizga bu og'ir kelishi mumkin, lekin internetdagi vaqtingizni kamaytirib, balki bir muddat internetdan umuman foydalanmay turishingiz kerak. Chunki siz kompyuter va internet kasalligidan davolanishga muhtoj siz.

XULOSA

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan 2023-yil davomida o'tkazilgan maqsadli monitoring natijasida ayrim «UZ» domen hududida ro'yxatdan o'tgan veb saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlar va krossplatforma ilovalari, milliy segmentining ba'zi guruh, sahifa va kanallari tomonidan salbiy ta'sirga ega axborot materiallari monitoringi olib borildi. Jamiyatda o'zgarish tendensiyasini yuzaga keltirgan materiallar yuzasidan Markazning rasmiy munosabatlari, bayonotlari, tushuntirishlar berildi.

Xususan:

O'tgan 2023-yil davomida mamlakat miqyosida tashqi va ichki siyosatda muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar bo'lib o'tdi. Bunda turli radikal guruhlar tomonidan mamlakat tashqarisida hamda ichkarisida davlat manfaatlariga qarshi axborotlar ko'plab tarqatildi, jumladan:

- axborotlar oqimi yangi tahrirdagi konstitutsiya bo'yicha referendum, prezidentlik saylovi doirasida va undan so'ng, mamlakatda demokratiya prinsiplari yo'qligi, davlat boshqaruvidagi islohotlar samarasizligi, davlat xizmatchilarini obro'sizlantirishga oid materiallar, adolatni tiklash uchun davlatga qarshi birlashish zarurligi kabi chaqiriqlar;

- davlat rahbarining xorijiy tashriflari, mamlakatimizda o'tkazilgan turli xalqaro siyosiy ahamiyatga ega tadbirlar, gegemon davlatlar (Rossiya, AQSh, Xitoy) o'rtasida vositachilik qilishga majburligi yoki Rossiya o'z tashqi siyosatini O'zbekiston orqali amalga oshirishga urinish bunga O'zbekiston qarshilik ko'rsata olmasligiga ishonitirish qabilidagi maxsus materiallar;

– qabul qilingan qonun, qarorlar oddiy xalq uchunligi, mamlakatda korrupsiya, nepotizm, ijtimoiy adolat yo‘qligiga ishontirishga qaratilgan lavhalar;

– mamlakat boshqaruvi demokratik prinsiplarni ta’minlay olmayotgani, mamlakatga haqiqiy muxolif partiya kerakligi va bu partiyani tuzishda Xidirnazar Alloqulov ismli shaxs atrofida birlashish kerakligiga oid videomateriallar;

– Rossiya propaganda mashinasi tomonidan turli OAVlar orqali O‘zbekistonni qo‘shib olish kerakligi, rus maktablarini migrantlar hisobidan ochish lozimligi, Rossiyadagi migrantlar Rossiya uchun xavf ekanligi, o‘zbek millati 1917-yil (revolyutsiyaga qadar) umuman bo‘lmagani haqidagi psixologik ta’sir tadbirlari;

– O‘zbekistonda din davlat tomonidan boshqarilishi, din ulamlari davlatga qarashli shaxslar ekanligi, diniy erkinlik doimiy nazoratda ekanligi bunga qarshi birlashgan holda kurashish kerakligi bo‘yicha da’vatlar kabi materiallar keng jamoatchilikning orasida muhokamalarga sabab bo‘lgan tendensiyalar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tashqi siyosatda davlat rahbarining xorijiy safarlardan so‘ng chiqarilgan dezinformatsion, salbiy axborotlar doirasida jamoatchilikda fikrlar bildiruvchi guruhlar («Rossiya imperiyasi sanksiyalarga uchragan bir vaqtda siyosiy bosim ko‘rinishida O‘zbekiston orqali o‘z tashqi siyosatini amalga oshirmoqda», «Rossiyaga qaramlik hali ham davom etmoqda», «Amerika va Yevropa davlatlariga tashriflari esa O‘zbekiston tashqi siyosatda omon qolish uchun kurash boshlagani», «Rossiyadagi ko‘plab migrant vatan-doshlar sabab O‘zbekiston Rossiyaning ko‘plab talablarini bajarishga majbur», «Rossiya davlati har qanday vaziyatda bosim orqali Markaziy Osiyoga Amerika va Xitoy davlatlarining kirishiga imkon bermayapti») paydo bo‘ldi va natijada ijtimoiy tarmoq va-killari hamda jamiyatda ma’lum ma’noda bo‘linish tendensiyasi vujudga kelayotganini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Soʻz erkinligi taʼminlanishiga qaratilgan islohotlar, insonlar har qanday fikrni ayta olishiga sharoit yaratdi. Jamiyatda ijobiy axborotlar bilan birgalikda turli noxolis axborotlar oqimi koʻpaydi. Insonlar orasida turli maqsadlarda chiqarilgan axborotlarni tahlilsiz (asossiz) toʻgʻridan toʻgʻri qabul qilish odatga aylana boshladi. Ijtimoiy tarmoqlar shaxslar ijtimoiy hayotidagi turli muammolarni toʻgʻridan toʻgʻri davlat boshqaruvini, mansabdor shaxslarini, hatto davlat rahbarini ochiqdan ochiq aybdor qilish shaklidagi murojaatlar hajmi oshdi. Ochiqlik siyosatini suiisteʼmol qiladigan «bloggerlar» guruhlar paydo boʻla boshladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy botlar «Uchinchi Renessans», «Yangi Oʻzbekiston» gʻoyasiga qarshi axborot urushini eʼlon qildi. Bunda istalgan mamlakatda duch kelish mumkin boʻlgan biror ahmoqona xatti-harakatga «Mana sizga Uchinchi Renessans», «Oʻzbekiston tengdur – Oʻzbekistonga» deya sarlavha qoʻyib tarqatishdi. Bu kabi manipulyatsiyalar hokimiyatning har qanday, hatto oliyjanob tashabbuslariga boʻlgan ishonchning ham pasayishiga olib kelishi mumkinligini koʻrishimiz mumkin.

Yil davomida ijtimoiy tarmoqlarda radikal guruhlar tomonidan mamlakatdagi diniy muhitni tanqid qilgan holda, ilm-ahli vakillari chiqishlarini «Saroy mullasi» degan sarlavhalar bilan qoralash arab yozuvlari bilan yoʻgʻrilgan, lekin asl maʼnosi koʻrsatilmagan suratlar, ilmiy asosi bayon qilinmagan diniy chaqiriq tasvirlangan qisqa video materiallar keng tarqala boshladi. Diniy hayot tarzini maʼqul koʻradigan, insonlar oʻrtasidagi munosabatlarni dunyoviylik qoidalaridan koʻra xorijdagi ulamolarning sharʼiy gaplari asosida tartibga solishni maʼqul koʻradigan toifalar paydo boʻla boshladi. Mamlakat diniy ilm ahli vakillarini ochiqdan ochiq tanqid qilish boshlandi. Aholi orasida koʻr-koʻrona sharʼiy qoidalar asosida hayot kechiruvchi, erkaklarda soqol qoʻyish, ayollarda hijob oʻrash, umra ziyoratiga borish, oʻzaro nutqlarda arabcha soʻzlar qoʻllash, tamaddixonalar arab tilida nomlanishi kabi holatlar

ko‘paydi. Jamiyatda sof diniy ta‘limotni anglashdan ko‘ra «shaklga ergashuvchi» omma shakllanishi boshlanganini ko‘rish mumkin.

Umuman olganda, mazkur manbalarning ma‘lumotlari jamiyat a‘zolarida noxolis fikrlarni uyg‘otishga, ularda nigilizmni shakllantirishga xizmat qilayotganini anglash qiyin emas.

Quyida shunday manbalardan, asosan, xorijda turib faoliyat olib borayotganlari haqidagi ma‘lumotni ko‘rish mumkin:

Mazkur ma‘lumotlarni xolis baholashni tashkil qilish bugunning dolzarb vazifasi. Bunda mutaxassislar, pedagoglar, ota-onalar umuman o‘zini shu Vatanga daxldorman degan har bir odam ishti-rok etishi lozim. Bu xususida quyidagilar tavsiya etiladi:

– Ota-ona o‘zining har bir farzandi bilan doimiy ravishda do‘stona muloqotni yo‘lga qo‘yish borasidagi targ‘ibot va tashviqot ishlarini yo‘lga qo‘yish. Bolalar bilan ko‘proq muloqotlarni olib borish.

– Oilada turli smartfon va gadjetlardan foydalanish bo‘yicha tartibni joriy etish hamda har bir oila a‘zosi bilan kelishish. Bunda bolalarga nisbatan «Hali u yosh bola, kichkina, hech narsani tushunmaydi. Men nimani joriy etsam, shuni bajarishga majbur» degan fikr bilan yondashish noto‘g‘ridir. Ular bilan xuddi katta odamlar bilan munosabat qilgandek munosabatda bo‘lib, kelishuv amalga oshirilsa, rag‘bat, kattalarni hurmat qilish, tartib-intizomga rioya etish, eng muhimi, bolalarda o‘ziga va oila a‘zolariga ishonch paydo qilgan bo‘lamiz.

– Oilalarda «ekran vaqti» tushunchasini joriy etish. Mutaxassislarining ta‘kidlashicha 3–6 yoshdagi bolalarning bir kunlik ekran vaqti 30 daqiqadan 60 daqiqagachadir. Ushbu daqiqalarni bir kunni turli qismlarga bo‘lgan holda sarflash tavsiya etiladi.

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 139-son qarorini ta‘lim muassasalarida doimiy ravishda ishlashini nazoratga olish.

– Bolalarni imkoni boricha turli yumushlar bilan band qilish. Fan va sport to‘garaklari, uy yumushlari, har xil turdagi kasb va hunarga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bilan band qilish ularda bo‘sh vaqtning kamayishiga olib keladi. Natijada, bolalarning smartfonlardan foydalanishga imkoni qolmaydi.

– Smartfonlarga «ota-ona nazorati» funksiyasini o‘rnatish va doimiy ravishda bolalarni telefonlarini nazorat qilib borish. Bola-ning rivojlanishiga, hayotiga, fikrlash va dunyoqarashiga salbiy ta‘sir o‘tkazuvchi kontentlarni cheklash.

– Ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentida milliy kontentlar bazasini kengaytirish.

Qo‘llanma ota-onalar uchun mashaqqatli va shu bilan birga oila hayotidagi nihoyatda muhim hisoblanmish farzand tarbiyasiga bag‘ishlandi. Qo‘llanma ota-onalarga farzandlarining maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan kunidan boshlab, to voyaga yetgunigacha bo‘lgan davrda qanday tarbiya berish, yaxshi xulq va odobni shakllantirish, ularning ijtimoiylashuviga erishish, kasb tanlash, jamiyatga moslashish, katta hayot maktabiga qadam qo‘yish hamda ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishda farzandlariga qanday yo‘l-yo‘riq berish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Keltirilgan barcha tavsiyalar avvalo milliy tarbiyamiz an‘analari- ga, dono xalqmizning ma‘rifat sohasidagi ko‘p asrlik tajribasiga, yurtimizning dunyo ilm-fan, ma‘rifat sohasiga ulkan hissa qo‘shgan olim, mutafakkirlarning ta‘limiy va tarbiyaviy qarashlari- ga, shuningdek, ta‘lim-tarbiya va unga turdosh fan sohalarida to‘plangan bilimlar, zamonaviy pedagogik va psixologik qarashlar va yondashuvlar asosida tuzildi.

Umid qilamizki, ushbu qo‘llanma siz ota-onalarga farzandingiz tarbiyasi va ularning namunali odob va xulq egasi bo‘lib unib-o‘si- shida, mustaqil hayotga har taraflama tayyor holda qadam tashla- shida hamda kelajak hayotlarini baxtli, saodatli va munosib qu- rishlarida sizga ko‘makchi bo‘lib qoladi.

Farzandlaringiz tarbiyasi yoʻlida amalga oshiradigan barcha faoliyatingizda sizlarga kuch-quvvat va muvaffaqiyat tilaymiz!

**Respublika Maʼnaviyat va
maʼrifat markazi**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. Учинчи нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – 464 б.
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-2-китоб. – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2022.
4. Назаров Қ. ва б. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2021. – 816 б.
5. Қодиров А., Қуронов М. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. III қисм. – Тошкент: Муҳаррир, 2019. – 256 б.
6. Tashmetov T. Ijtimoiy tarmoqdagi tuzoqlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
7. Ijtimoiy tarmoqlarning 6 ta ilmiy asoslantirilgan xavfli jihati. <https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilgan-xavfli-jihati>
8. Ijtimoiy tarmoqlarning ruhiyat va salomatlikka ta’siri. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/ijtimoiy-tarmoqlarning-ruhiyat-va-salomatlikka-tasiri-1>
9. Ijtimoiy tarmoqlarning foydalari. <https://sinaps.uz/maqola/7705/>
10. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: «Movarounnahr», 2016.
11. <https://president.uz/uz/lists/view/7008>

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

IJTIMOİY TARMOQLAR TA'SIRI

OTA-ONALAR VA O'QUVCHILAR
UCHUN TAVSIYAVIY
METODIK QO'LLANMA

Toshkent – «Ma'naviyat» – 2024

Muharrir *Shohida Nazarova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Sohibov*
Musahhihlar: *Sharofat Xurramova, Dilorom Hotamova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Shuhrat Sohibov*

Litsenziya AI №189, 10.05.2011-yilda berilgan.
Bosishga 29.11.2024-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.
«Times New Roman» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabogʻi 5,11. Nashr tabogʻi 4,90.
Buyurtma №24-152. Adadi 3 000 nusxa
Narxi shartnoma asosida.

«Maʼnaviyat» nashriyotida chop etildi.
100047. Toshkent, Taraqqiyot 2-berk koʻcha, 2-uy.



ISBN 978-9943-04-513-2



9 789943 045132